

VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!



# VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning  
24-iyunidan chiqib  
boshlagan

2025-yil 1-avgust  
№31 (3145)

MILLIY ARMIYA O'ZBEKISTONNING HUKUMAT QALQONIDIR!

www.mv-vatanpa



**YOVLAR YAQIN**

**YO'LOLMAGAY**

**QO'RG'ONINGGA**

IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

[t.me/mv\\_vatanparvar\\_uz](https://t.me/mv_vatanparvar_uz)  
[vatanparvar-bt@mail.uz](mailto:vatanparvar-bt@mail.uz)  
[facebook.com/mudofaavazirligi](https://facebook.com/mudofaavazirligi)



[t.me/mudofaavazirligi](https://t.me/mudofaavazirligi)  
[instagram.com/mudofaavazirligi](https://instagram.com/mudofaavazirligi)  
[youtube.com/c/uzarmiya](https://youtube.com/c/uzarmiya)

# YURTNI SEVMOQ

Maqolamizda asosiy tayanch nuqta sifatida ikki jangnoma doston "Yusuf bilan Ahmad" hamda uning uzviy davomi bo'lgan "Alibek bilan Bolibek" dostonlarini tanladik. Bu eposlarda aks etgan jasurlik, kuch-qudrat, or-nomus masalalari bugungi kunimiz uchun ham beqiyos tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ular zamonaviy avlod qalbida vatanparvarlik tuyg'usini yanada oshirish, milliy g'ururni mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonamiz. Zero bunday ruh bugungi murakkab dunyoda suv va havodek zarur.

## AJDODLARIMIZ VATANNI QANDAY HIMOYA QILGAN?

**VATANPARVARLIK – JUDA QADIMIY RUH.** Jangchi bo'lib tug'ilish, mardona kurashish, qahramonlarcha o'lish aksar ajdodlarimizning bebaho hayot tarziga aylangan. Bejiz "Yusuf bilan Ahmad" dostoni qahramonlariga: – *Alqissa, bular Isfahon yurtining yigitlarini urush-savash va botirlikka o'rgatish bilan mashg'ul bo'ldilar, – deya ta'rif berilmaydi.* Yusufning esa: "Yetti yoshdan beri savash qilarman..." degan tarjimai holi bor.

Yurt taqdiriga xavf soluvchi har qanday holat jangchilarni ilonday qo'zg'atib, sherday na'ra torttirgan. – *...Yusufbekning yigitlarini andak achchig'i keldi: – Bizga javob bering, urushamiz, boshiga boshimiz, tishiga tishimiz, Isfaxonning ichida chopishib o'lisharmiz...*

"Alibek bilan Bolibek" dostonida esa ayni kunlarimizdan hikoya qiluvchi mujdalar bayon etiladi.

Yusuf bilan Ahmad himmatidan so'ng Masal (*Misr o'lkasi*) podshosi Go'zalshoh Islomni qabul qilib, osuda yashar edi. Ammo bu hol qo'shni mamlakat G'ulg'ula shahrining

shohi Shohpo'latshohga tinchlik bermadi. **U elchi orqali Masal poshosi shunday mazmundagi noma bitadi:**

– *Yurtga Yusufbek-Ahmad kelibdi, undan qo'rqib, yuraging yorilib, joning chiqib, diningdan ayrilib, shularning gapini ma'qul deb, diniga kiribsan. Ana endi shu xatni ko'rgandan so'ng tavba qilib, uzr aytib, yangi dindan qaytib, avvalgi diningni qabul qilasan. Agar qaytmasang, ustingga lashkar tortib boraman, shahringni vayron qilib, qo'rg'oningni qulatib, o'liklarni sulatib, bolalaringni jilatib, shahringni vayron qilib, elingni buzib, taxti-baxtingni yer bilan yakson qilib, shahring devorlarining kesaklarini fillarga ortib, yurtingda mushtday kesak qo'ymay, gurzilar bilan urdirib, mayda-mayda qilib, g'alvirdan o'tkazib kelayin. Agar shu so'zimni olmasang, Shohpo'latshohning lashkarini ustingda ko'r...*

Go'zalshoh maktubni el-ulusga o'qib eshittiradi. Ana shu lahzalarda o'quvchi Masal jangchilarining chin e'tiqodi, vatanparvarligi, botirlikni ularning birgina jumlasida teran his qiladi:

– *...Kelsa qilichimizning baldog'i, miltig'imizning qo'ndog'i qolguncha urishamiz.*

Ularning har so'zida botirlik, ulug'vorlik bo'y ko'rsatadi. Birlari: "Yurtni sevmoq odatidir ertlarning..." desa, yana birlari g'animga: "Kelsang qilich bilan aylay ziyofat..." qabilida piching qiladi.

Dostonda Ashurbek sardor yigitlariga ko'ngillik berib: "Shul dushmanga qilich urgan qirq yil toati beriyodin afzal", degan so'zni aytadi. Bu da'vatda chin ma'noda ikki dunyo saodati ko'rinadiki, bu esa jangchilarni so'nggi qoni qolguncha kurashishga chorlay olgan.

Darvoqe, bu yo'sinda ulg'ayish uchun jangchilar yillar davomida ta'lim oladi, jismoniy va ma'naviy kamolotga erishadi, yurtini hech bir tamasiz, yurakdan sevadigan bo'ladi.

## MING YILLIK ILLATLARIMIZ

Boy tariximiz, chor tarafga ovoza bo'lgulik botirliklarimiz qatori bizni azaldan ta'qib etuvchi ko'hna illatlarimiz ham borligidan aslo ko'z yumib bo'lmaydi. Xalq dostonlarida ham er yigitni azob-uqubatlarga yo'latuvchi, zimdan kemiruvchi qusurlar haqida aytilganki, ulardan ogoh bo'lishimiz har qachongidan-da muhim masalaga aylanib bormoqda.

"Yusuf bilan Ahmad" dostonida Masal yurtidan badrak Mirzo Mamad Xorazmga jabrdiyda qiyofasida keladi. Uning maqsadi Yusuf bilan Ahmadni hiyla bilan asir olish, tutqun etib, Masal podshosiga eltish edi. Ammo Yusufbek qulning holini bilmay, unga ko'p ehtirom ko'rsatadi. Ko'pni ko'rgan keksa Bo'zo'g'lonxon esa unga sinalmagan otga yaqin yo'lamaslikni ko'p va xo'p ta'kidlaydi. Hatto bir so'zida: "Ko'zlari oladir, o'ldir shu qulni" deb aytadi:

*Ko'p azoblar berar sening o'zingga, Qo'rg'oshinlar qo'yar ikki ko'zingga, Kishan urib, kunda solar tizingga, Yusuf turur tushda ko'rgan ahvoling, Xonumoning olov ichra kuydirib, Ko'chalaring o'lik birla to'ldirib, Burning kesib, o'zingizga yedirib, Yusuf turur tushda ko'rgan ahvoling.*

Jabrdiyda qul qiyofasida yurtga kirish kitobxonga qadimiy "Shiroq"ni, mashhur "Troya oti" voqealarini eslatishi tabiiy. Afsuski, badrak o'z maqsadiga yetadi. Yusuf bilan Ahmadni ov chog'ida hiyla bilan asir etib, Masalga olib ketadi. Aka-uka bobosi Bo'zo'g'lon so'zini pisand etmagani, el bilan kengashmagani, takabburlik qilgani uchun shu ahvolga tushganidan ko'p o'kinadi. Yusufning Mirzo Mamadga qarata aytgan: "Manmanlikdan ko'rdim balo-zulmni..." iqrorida ham shunday achchiq nadomat yotadi.

Dostonlarda takror aytiluvchi yana bir qusurimiz borki, u bugunga qadar ich-ichimizda ildiz otib kelayotir.

## Parchaga diqqat qiling:

*"...Bulardi yazidlar (dushmanlar) har vaqt uyqusida ushlar erkan. Bular bir yotsa, uch kecha-kunduz yotar erkan, bir yursa uch shabro'z yurar erkan..."*


Uzoq vaqt dong qotib uxlash dushman uchun ayni muddao. Badrak Mirzo Mamad Yusuf bilan Ahmadni qattiq uyquga ketgan mahal asir oladi. Qo'l-oyog'i mahkam bog'langan aka-ukalarning yo'l bo'yi o'z ayblariga iqrar bo'lib, Xudodan panoh so'rab borish sahnasi har birimiz uchun chinakam ibratdir.

**Jangchi uchun ulkan xavflardan yana biri mast qiluvchi ichimliklardir.** Afsuski, dostonlarda sharobdan sarmast holda zanjirband etilgan qahramonlar taqdirini ko'plab uchratish mumkin. "Kuntug'mish"ni eslang. Karvonboshi Azbarxo'ja Kuntug'mishga kuchi yetmasligini bilib, unga haddan ortiq may ichirib, karaxt qiladi. Bu yilmishi uchun To'ra Xolbeka va ikki farzandidan ayrilib, uzoq mashaqqatlarga duch keladi. Buni ming yillar qa'ridan kelayotgan signal sifatida qabul qilsak, muhim xulosaga ega bo'lganimiz tayin bo'ladi.

## NEGA QAHRAMONLARIMIZ MUBOLAG'AGA O'RAB TASHLANGAN?

Bu har qanday xalq ijodiyoti o'quvchisida uyg'onadigan tabiiy savollardan biri. "Alpomish" dostonida qalmoq pahlavonlari portretiga e'tibor bering: "Shomurti shoxalab har yoqqa ketgan, Ichida sichqonlar bolalab yotgan, Izidan tushgan pishak olti oyda yetgan"; "Odam tushmas buning aytgan tiliga, Besh yuz quloch arqon yetmas beliga"; "Oh ursa olamni buzar dovushi, To'qson molning terisidan kovushi"; "Qahransa toshni yorar qahri, To'qson norning go'shti bo'lmas nahori"; "Oltmish qarich olachadan qalpog'i, To'qson qo'ying terisidan telpagi..."

Asrlar bo'yi xalq qalbida tirik saqlanib kelayotgan epik dostonlarimizni yodga olganimizda, bugungi dunyodagi harbiy-siyosiy jarayonlar, urush va ziddiyatlar ziyarak o'quvchi uchun teran xulosalar chiqarish imkonini yaratadi. Chunki Vatan tinchligi va barqarorligi uchun xizmat qilish – bu nafaqat buyuk dostonlarimizda alohida o'rin egallagan, balki hayotning o'zida ham vijdon va mas'uliyat bilan bog'liq muqaddas burch bo'lib kelgan.



# ODATIDIR ERLARNING

Bunday ta'riflar yuzlab doston qahramonlari atrofida aylanib yuradi. "Yusuf bilan Ahmad" dostonida Hamza qizilboshning ta'rifiga diqqat qiling:

*"Hamza qizilbosh choshgoh vaqtinda o'n to'rt qozoqi qo'yni so'ydirib, yog'ini yalab, etini yeb, sho'rvasini to'rt qultum etib ichib, kekirib, nahor yeb o'ltirar erdi.*

*Uning oltmish to'rt qo'y terisidan bo'lgan bir po'stini bor edi, yigirma qo'yning terisidan bo'lgan bir telpagi bor edi, ikki yuz yigirma bir gaz belbog'i bor erdi, yana tutdan o'ttiz ikki gaz hassasi bor edi".*

**YANA BIR O'RINDA:** "Hamza qizilbosh Bobo Qambari bir qo'li bilan ko'tarib, zindonga tashladi", deya mubolag'a qilinadi.

Yoki: – Ashurbek sardor yigitlari goh sadoqlarin bog'lab, po'lat paykon o'qin joylab, qolgan yazidlarning siynasiga otar edi. Har otganda ellik-oltmishi sulayib yotar edi.

Biz atay dostonlardagi ikkinchi darajali pahlavonlar ta'rifini keltirdik. Sababi, ular qanchalik dovuqli bo'lmasin bosh qahramonlardan yengilgan. Endi g'oliblarning fantastik qudrati haqida o'zingiz mulohaza qilavering.

Botirlarini turli sifatlar bilan bo'rttirib ko'rsatish har bir mamlakat qo'shinlari orasida urf bo'lgan. Ba'zan shohlar o'z

elchilarini raqib jangchilarining salohiyatini bilish maqsadida sovg'a-salomlar bilan maxsus yuborgan.

Masalan, Urganch shahrining besh xoni Yusuf bilan Ahmadga qimmatbaho sovg'alar bilan Oyxonni elchi qilib yuboradi. Yusufbek Oyxonga siz boravering, biz bir haftadan keyin boramiz, deb elchini kuzatib qo'yadi.

Eralixon qaytib kelgan Oyxonidan: "Yusuf, Ahmadning yigitlari nechuk erkanlar?" – deb so'rashining asl mohiyatini sergak o'quvchiga tushuntirishning hojati bo'lmasa kerak.

**Yoki Bobo Qambar Xorazm shohi Yusuf va uning jangchilarini Go'zalshohga shunday tanishtiradi:**

*Yigitlari bordir kundal pichoqli, Belinda po'tasi zarrin sachochli, Lashkarlari soni bordir bu chog'li, Taka begi sohibqiron kelibdi.*

Bu kabi mubolag'alar aslida elning benuqson va kuch-qudratda tengsiz qahramonlarga bo'lgan azaliy istagi hosilasidir. Ammo buni to'la uydirma sifatida qabul qiluvchilar ham katta xatoga yo'l qo'yishlari mumkin. Chunki real hayotda ham turkiy jangchilar dovyurakligi va shiddatkorligi bilan ko'pning og'zida bo'lgan. Hatto Xitoy

manbalarida butun qo'shinga qarshi bir o'zi jang qilishga qodir jangchi bo'lsa – u shubhasiz turkiydir, degan ma'lumotlar uchraydi.

## "TEMURBEKLAR MAKTABI"NING ILDIZLARI

Jangnoma va qahramonlik dostonlarini mutolaa qilar ekanmiz, yurt koriga yaraydigan birgina jangchi tayyorlash mashaqqatli va juda erta boshlanuvchi jarayon ekaniga guvoh bo'lamiz. Garchi Amir Temur bobomiz bolalikdan harb ilmi bilan mukammal shug'ullangan bo'lsalarda, bu jarayonlar ancha qadimiyroq, ya'ni xalq dostonlariga borib taqalishini esdan chiqarmaslik lozim. Bu qaroming ko'hna asoslari, ya'ni bolaga avval chuqur ta'lim berish, ma'lum bir yoshga yetgach, harb ishini o'rgatish tajribasini dono xalqimiz har vaqt qo'llab kelgan.

**"Kuntug'mish" dostonidan keltirilgan ushbu parchaga so'zma-so'z e'tibor qarating:**

*"Kuntug'mish o'n to'rtga kirguncha ish-hunar, kasb-kamolot hosil qilib, o'n to'rttdan o'tgandan keyin, sipohilik ishlariga yuz keltirib, qilich chopmoq, miltiq otmoq, chirishbozlik, ko'pkaritozlik, nayzadastlik, garovbastlik ishlariga qo'shish qilib, qirqta yigitni yoniga olib, goh toqqa, goh ovga shikor qilib yurar edi..."*

Shu mantiqdan kelib chiqsak, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-iyundagi PQ-4375-son "O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining nechog'li muhim ahamiyat kasb etganini tushunib yetamiz.

Qarorga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiyasi tarkibida **prinsipial yangi "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseylari tashkil etildi.**

Eng qizig'i, "Temurbeklar maktabi"ga umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktab-internat maktablarining 9-sinfini tamomlagan o'quvchilarning qabul qilinishi zahirida Kuntug'mishning o'n to'rtga kirguncha ish-hunar, kasb-kamolot o'rganishi, undan so'ng esa harb ishi bilan mashg'ul bo'lish tartibi yotgan bo'lsa ne ajab.

**Kapitan Bobur ELMURODOV, "Vatanparvar"**



## Esse



Aka, jahon adabiyotidan qaysi adibning asarlarini yoqtirasiz? Menmi? Kaminaning bu boradagi ro'yxati juda uzun. Oxirgi o'qiganimmi, Erix Mariya Remarkning romanini tugatdim. Ha, topdingiz, o'sha yaqinda tarjima qilingan "Umid uchquni" asari. Eh, aka, ishoning bu kitobni o'qib, yuragim qattiq achishdi. Alam va dardni his qildim. To'g'ri, u romanda keltirilgan voqealar o'zga muhit, o'zga sharoit, o'zga davr va o'zga mamlakatda yuz bergan. Ammo insoniyatning boshida quzg'undek kezman ofatning o'tkir nafasi yuragimdagi qonni laxta-laxta qilib qo'ydi. Zamon o'zga bo'lgani bilan tuyg'u, sitamlar bir xil ekan-da.



Darvoqe, bu haqda ham vaqt topib, albatta gaplashamiz. Hozir Sharqiy harbiy okrugda harbiy xizmatchilar ishtirokida bo'lib o'tgan amaliy mashg'ulotlar haqida so'zlab bermoqchi edim. Ishoning, bu hikoyam avvalgilardan tubdan farq qiladi.

Bilasiz, kapitan Orifjon Mamajonov shu okrugning matbuot xizmati boshlig'i lavozimida xizmatini davom ettiryapti. Men aytib bermoqchi bo'layotganlarimda uning ham ishtiroki bor-da.

- Daraxtlar nega yozda gullamay, aynan bahorda uyg'onadi, shu haqda hech o'ylab ko'rganmisiz? - dedi kapitan Mamajonov menga o'tkir qarab.

Ikkimiz olcha daraxti ostida, soyalab o'tirgandik. Barglar orasidan quyoshning siniq nurlari yuzimizga ohista urilar, mayin esib turgan shabadadan shitirlagan ovozlari quloqlarimiz ostida yoqimli va huzurbaxsh ohanglarni jonlantirardi. Uzoqdagi o'quv joylarida yurt o'g'lonlari mashg'ulotlarni olib borayotgandi.

- Bu savolingiz xuddi quyosh bilan oyning o'rni almashib qolsa, nima bo'lardi, degandek bo'ldi, - dedim ovozimni baland qo'yib kulganicha. Keyin kapitanga qaradim. U negadir jiddiy bo'lib olgandi. Qizg'ish yuzida hech qanday ma'no yo'q. Aftidan gapim unga yoqmagandi. Shu ko'rinishda ikkimiz uzoq o'tirdik. Go'yo endi gaplashgani hech qanday mavzu qolmagandi. Bir nafasda begonalariga aylandik.

- Agar barglar yozda o'zini ko'rsatganida, insoniyat go'zallikni hech qachon his qilmay, g'am-g'ussaga to'lib-toshib kunlarini yashab o'tardi, - dedi Orifjon aka. So'ng u qo'llari bilan ikki tizzasini mahkam quchoqlab oldi. Bo'ynini yelkalarining ichiga tortdi. Unga qarab o'tirar ekanman, ko'z oldimda u mitti va himoyasiz boladek ko'rinib ketdi.

- Demak, hammasi azaldan o'ylangan, - dedim jiddiy turib. -

Shunday ekan, birini ikkinchisining o'rniga qo'yish - hatto xayoldan o'tkazish - xatolar daryosida suzishni bilmagan odamdek harakat qilishga o'xshaydi.

- Unda tasavvur qilish imkoni bizga nega berildi? - dedi u yelka osha menga qaraganicha.

Ana shunda Mamajonovning nigohiga ko'zim tushdi-yu, tanamni sovuq titroq egallab oldi. Chunki uning qarashlarida allaqanday,



ha, men shu vaqtgacha sira ham ko'rmagan alamli tashvish bor edi.

- Aql egalari borini boricha qabul qiladi, - dedim o'zimni xotirjam tutishga harakat qilib. - Ixtiro qilingan narsani qayta yaratish - kashfiyotni uddaladim deyishga asos bo'lolmaydi.

- Ikkimiz ikki dunyo ekanimizni angladingizmi?

- Har qalbda bir uy bor, - dedim shoshib. Ovozim ham biroz baland chiqdi. - Faqat uni turlicha asraymiz. Topganimiz uning mulki, anglaganimiz esa nazarimiz qadar bo'ladi, aka.

Tepamizdan MI-8 vertolyoti varillab uchib o'tib, bizdan naribroqda mashg'ulot bajarayotgan guruhga yordamchi kuchni desantlashtirdi. Yerga tushgan harbiy xizmatchilar berilgan vazifalarni bajarishga

# HAR QALBDA

kirishdi. Bir chiziqqa tizilgan Vatan himoyachilari, bir-birini pana qilib, nishon tomon asta yaqinlashdi. Oldinda ketayotgan harbiy xizmatchining qurolidan o'q uzildi. Ko'p o'tmay, naribroqdan pulemyotning tirillagan ovozi eshitildi. O'qdonlar tugamaguncha qasir-qusur ovoz atrofni qamrab oldi. Dimog'imga porox hidi kelib urildi - yoqimsiz va ko'ngilni ko'tarar darajada achchiq ta'm tuygandek bo'ldim. Uning o'tkir hidi boshimni aylantirib yubordi. Xayolim o'zimdan yiroqlashib, ruhim tanamni ozod etayotgandek edi, go'yo. Holsiz chumoli singari qadam tashlay boshladim.

- Bu dengizdan bir tomchi, - dedi kapitan Mamajonov mashg'ulot maydoniga qaraganicha. - Birozdan so'ng barcha qurollar nishonlarga qaratiladi.

Uning chehrasida hukm surayotgan alamzadalik mana endi tamoman daf bo'lgandi. Ko'zlari qisilib, o'ljasini kutayotgan arslondek to'g'riga boqardi.

Biz "Sho'rsuv" dala-o'quv maydonining qoq markazida - artilleriya qurollaridan otishga mo'ljallangan o'quv joyining oldida tik turardik. Ko'p o'tmay kapitan aytgandek, manzara ko'z oldimda namoyon bo'ldi - qasir-qusur boshlanib ketdi. Komandirlik punktidan baland ovozlari yangrar, buyruqlar to'xtovsiz shaxsiy tarkibga aloqa vositalari orqali yetkazilardi. Maydonda ko'tarilgan och sariq va ko'kimtir tutun tezda atrofni qamrab oldi. Endi hech vaqoni ko'rib bo'lmasdi. Nazarimda hammasi shu bilan tugaydigandek tuyuldi. Ammo adashgan



Kapitan Orifjon MAMAJONOV

# BIR UY BOR



ekanman. Chunki yurt o'g'lonlari o'zlarini niqoblash orqali, shartli dushmani chalg'itmoqchi bo'lgandi. Qolaversa, ular ayni usullarni qo'llab, bir nuqtadan boshqa joyga tezda o'tib olgandi. Qisqasi, taktik harakatlar shu darajada silliq va haqqoniy chiqayotgan ediki, bularga qarab turgan kishi yigitlarni shunchaki mashg'ulotlarni bajaryapti, deb sira ham o'ylamasdi.

Oldimda yastanib turgan keng maydonda yuzaga kelgan manzaradan daf'atan ko'nglim ravshan tortadi. Bilmadim, nimaga unday his qalbimni chulg'ab olgandi? Ehtimol, sharq o'g'lonlarining jangovar shayligidan ruhim o'zini yengil, ishonchli va dardsiz, muhabbatga yaqinligini anglagandir. Aytgancha, sizda ham

hech shunday bo'lganmi? Yo'qmi? Unda vaqt topib, albatta o'sha azamatlarning mashg'ulotlarini kuzatishga boring. Ishoning, aka, ular o'z kasbining haqiqiy ustasi. Bir deganda nishonni vayron etadi. **Hammalari bir xil – gaplari va harakatlari, hatto, olgan nafaslaridan ham Vatan hidi taraladi.**

Qisqasi, "Olov", degan ovozdan xayollarim joyiga keldi. Qarasam, nishabroq joyda tik turgan harbiy xizmatchi yelkasidagi – biz uni shayton to'p deb ataymiz – granatomyot bilan nishonni mo'ljalga olyapti. U tomonga qarab yurdim. Yaqindan kuzatmoqchi bo'ldim-da. Bu haqda hozir o'ylasam, ochig'i, tanamni qo'rquv egallab oladi.

Xullas, boyagi yigit tepkini bosdi, vahimali ovoz yer-u ko'kni titratib yubordi. Oyoqlarim ostidan ko'tarilgan chang chor tomonimni o'rab oldi. Yuragimning urishini o'zim eshityapman deng – dukduk. Tizzamda turgan titroqni to'xtataman deyman-u ammo u aytganimni qilmaydi. Ko'zlarim xonasidan chiqib ketishiga bir baxya qoldi. O'shanda quloqlarim ham tom bitdi. Hech narsani eshitmay qoldim. Chang harbiy xizmatchining keyingi harakatini ko'rishga to'siq bo'ldimi yoki ko'zlarim oldini tuman qopladimi, ishqilib, hech vaqoni ko'rmay qoldim. Kipriklarimga ingan nimadir uni pastga – yumib olishga majburlayotgandi.

– Ahvolingiz yaxshimi? – degan ovozdan xushimga keldim. Qarasam kapitan Mamajonov dumaloq ko'zlarini baqraytirib qarab turibdi.

Yuzini hayrat tamoman egallab olgan. Rangi ham oqarib ketgan. Nimadandir qattiq qo'rqqani shundoqqina ko'rinib turibdi.

– Odamning esini chiqarib yubordingiz-ku, – dedi u yelkamdan siltab tashlar ekan. Ovozi ham baland va qahr bilan chiqayotgandi. – Granatomyotdan otganda uning ortida turmaydi, garangmisan. Uzoqroqda bo'lish kerak, axir.

– Bilaman, – dedim boshimni egib. Ovozimda najot so'ragandek ohang bor edi. – Qiziqib ketibman. – Qiziqma, – dedi u. Hamon g'azab alangasi uning chehrasida o'zini ochiqdan ochiq namoyon etib turardi. – Yana harbiy emish...

Aka, men xumpar harbiy xizmatchilarning harakatiga mahliyo bo'lib, ularning yaqiniga borib qolganimni kech tushungandim. Orifjon akaning ana shundan jahli

chiqib, ranjigandi. To'g'ri-da, bunday kezlarda arzimmas xato – bor natijani yo'qqa chiqarishi mumkin edi.

Mashg'ulotlar tugadi. Yigitlar bir nechta o'quv joyida vazifalarni bajardi. Keyin hamma ortiga qaytdi. Harbiy texnikalar yonginamdan g'uvullagancha o'tib ketdi. Poligonning men turgan qismida sanoqli harbiy xizmatchilar bor edi. Kapitan Mamajonov o'quvga rahbarlik qilgan komandir bilan uzoq nimanidir gaplashib oldi. Adashmasam, keyingi o'quv joyida bo'lib o'tadigan jarayonlarning rejasini kelishdi – matbuot xizmati boshlig'i sifatida yoritish mas'uliyati uning zimmasida edi-da.

Ulardan uzoqlashib, o'zimni koyigancha teparoqqa chiqib oldim. Bilasiz, bu yerdagi tepaliklar tuyaning o'rkachlariga o'xshab ketadi. Yer bag'ridan bo'rtib-bo'rtib chiqqandek taassurot qoldiradi odamga. Yana bir qarashda bu manzaralar kishi qalbiga xotirjamlik va o'zgacha tuyg'uni tuyushga undaydi. Men turgan joydan esa pastlikdagi bor go'zallik kaftdek ko'rinib turardi.

– Ketamizmi? – dedi Orifjon Mamajonov. – Odamning yuragini tushirasiz-da, do'stim. Beparvolik – xatarlarni boshlab keladi. Ehtiyotkorlik – xotirjamlik bag'ishlaydi. Sizda esa ikkisi ham bugun ko'rinmadi. Ulardan voz kechdingizmi?

Uning o'tkir nigohiga bardosh berolmay, ko'zimni yerga tikdim. Tanam negadir qizib ketdi. Terlayotganimni his qildim. Yurak qurg'ur pitirlaydi – nega tilingni tishlaysan, gapir, javob qaytar, jim turma.

Qizg'ish tuproqdan yurib ketdik. Ha, ikkimiz. Tepamizdan quyoshning nurlari o'tib, narigi qirning betini qizdirayotgandi. Sharq tomonda esa oyning sinig yuzi xira-shira ko'zga tashlanayotgandi. Demak, bir vaqtda ikkisi – oy va quyosh ko'kda porlaydi – biri o'tkir nur sochadi boshqasi mavridini kutib turadi. Ammo ularning har biri o'z maqsadlari yo'lidan yuradi. Ha, bizning Vatan himoyachilaridek. Bir-biri bilan sira ham joy almashmaydi. Daraxtlar nega yozda gullamasligi haqida esa hatto o'ylab ham ko'rmaganman.

**Kapitan  
Shohrux SAIDOV,  
"Vatanparvar"**

Zaxiradagi jangchi



# KO'NGIL XARITASI

“ Inson tug'ilib, o'zini taniy boshlaganidan o'z oldiga maqsad qo'yadi. Va ana shu maqsadga erishish yo'lida tinmay harakat qiladi, intiladi, o'rganadi. Tabiiyki, baland cho'qqini zabt etishda murakkabliklar bo'lgani kabi ko'zlangan manzilga yetguncha ham inson turli to'siqlarga uchraydi. Ana shunday baland-pastliklarni matonat bilan yengib o'tgangina murodigina yetadi.

Bugungi suhbatdoshimiz iste'fodagi polkovnik Yo'ldoshali Rahmonov ham yoshligidan o'z oldiga harbiy bo'lishni maqsad qilib, shu yo'lda uchragan mashaqqatlarni sabr bilan yengib, Vatani so'zini qalbiga jo qilgan qahramonlarimizdan. 1963-yil 2-avgustda Farg'ona viloyati Rishton tumani Bo'ston qishlog'ida dunyoga kelgan Yo'ldoshali Rahmonov dastlab tuman harbiy komissariati tomonidan muddatli harbiy xizmatga yuborilgan. So'ng Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurtiga o'qishga topshirib, orzusi yo'lida odimlagan.

Keling, hozir gapning po'st kallasiga o'tsak-da, Yo'ldoshali Rahmonovning harbiy xizmat davomida boshdan kechirganlari, erishgan yutuqlari va harbiy xizmatchilarga tavsiyalariga quloq tutsak.

**- Harbiy bo'lish ishtiyoqi qachondan boshlangan va intilishingiz alanga olishiga nimalar sabab bo'lgan?**

- Harbiy sohaga ilk qiziqishlarim maktab

davrlarimdan boshlangan. Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani darslarida ustozimiz harbiylar hayotiga bag'ishlangan filmlarni qo'yib berardi. Dars mobaynida tumanimiz hududida joylashgan harbiy aerodromga ekskursiyalar tashkil etilardi. U yerdagi harbiy samolyotlarni ko'rib, istagim yanada kuchaygan. Darslar davomida asosan o'sha aerodromga ko'p borganimiz uchun harbiy uchuvchi bo'lish fikri tun-u kun tinchlik bermasdi. Yurgan yo'limda ham, ko'cha-ko'yda ham faqat shu haqda o'ylardim.

Hovlimiz uzra samolyot uchib o'tib qolsa bormi, to ko'rinmay ketguncha ortidan quvlab borardim. Harbiy uchuvchilikka shu darajada qiziqqanimdan dadam vassalik uchun olib qo'yan yog'ochlarni kesib, kichkina samolyot yasab olgandim. Oradan vaqtlar o'tdi, maqsadlar biroq o'zgardi. Biroq harbiy bo'lish istagi sira tinchlik bermadi.

Maktabni tugatgach, armiyaga borish uchun harbiy xizmatga yozildim. Haydovchilik mutaxassisligi bo'yicha o'qib, Vatani xizmatiga yo'l oldim. Muddatli harbiy xizmatni Ukrainaning Donetsk shahridagi harbiy qismlarning birida haydovchi sifatida boshladim. U yerdagi harbiy tartib, ofitserlarning bir-biriga bo'lgan hurmati, aytilgan topshiriqlarning vaqtida bajarilishi harbiy bo'lishimga yana bir sabab bo'lgan.

**- Harbiy xizmat davomida qanday muammolarga duch kelgansiz? Eng esda qolganlari qaysilar?**

- Armiyani tamomlagach, harbiy xizmatga chuqurroq kirish va ofitser bo'lish maqsadida Umumqo'shin qo'mondonlar tayyorlash bilim yurtiga hujjat topshirib, maktabda, armiyada olgan bilimlarim bilan o'qishga qabul qilinganman. Hammasi ana shu yerdan boshlangan. Sababi bilim yurtida ko'p o'quv qo'llanmalar rus tilida bo'lardi. Darslarning ham ko'pi shu tilda o'tilardi. Qishloqdan chiqqan bola qayerdan ham bilsin endi.

O'qishga kirar ekanman til bilmaslik mening eng katta muammolarimdan biriga aylandi. Darslarni o'zlashtirishda,

vazifalarni bajarishda qiynalardim. Imtihonlardan o'tishdagi qiyinchiliklarni-ku aytmasam ham bo'ladi. Sinovlardan yiqilaverganimdan ustozlarning ko'ziga "balo"dek ko'rinib qolgandim. Muallimlardan dakki eshitardim, ketma-ket jazolanardim.



U vaqtlarda hozirgiga o'xshagan til o'rgatadigan kurslar bo'lmasdi. Qishloq joyda ikkinchi tilda gaplashish zarur emasdi ham. Bu yerda esa rus tilini bilish shart edi. Tilni bilmay, o'rgana olmay, o'qishni tashlab ketgan kursantlar ham bo'ldi. Yashirmayman, mening ham xayolimdan birzum bilim yurtini tashlab ketish fikri o'tgan.

Xizmatim davomida ko'plab muammo va qiyinchiliklarga duch kelganman. Kursantlik vaqtlarimda til bilmasligim muammo bo'lgan bo'lsa, ofitser bo'lganimdan so'ng uddalash qiyin bo'lgan topshiriqlar katta muammoga aylangan.

**- O'sha vaziyatlarda qanday yechim topgansiz?**

- Yuqorida aytganimdek, til bilmaganman. Darslarda ham bu rosa pand berardi. Bilgan narsamni ham ruschada tushuntirib berolmasdim. Ahvol shu tarzda davom etavergach, uydan pochta orqali ruscha-o'zbekcha lug'at kitob keltirib, kecha-yu kunduz og'riqli nuqtamni to'g'rilay boshladim. Bo'sh vaqtim bo'ldi, deguncha lug'at yodlardim. Hatto, beriladigan ta'til vaqtlarida ham



uyga bormasdim. O'zimga o'zim: "oddiygina shu qiyinchilikni yengib o'tolmasam, qanday harbiy bo'laman, harbiy bo'lish uchun ham avvalo shu nomga munosib bo'lishim kerak", deya tinmay o'z ustimda ishlaganman.

O'qishni tugatgach, Nikolayev shahridagi harbiy qismlardan biriga leytenant bo'lib borganman. Ofitser bo'lib xizmat boshlaganimga hali ko'p bo'lmagandi. Hatto, shaxsiy tarkib bilan hali to'liq tanishib chiqishga ham ulgurmagandim. Komandirimiz men va bir nechta safdoshimizni Nikolay ismli ofitser boshchiligida shahardan 80 km g'arbda joylashgan "Shrikolanskiy" poligoniga xizmatga yubordi. Manzilga yetib borgach, hammaga aniq vazifa yuklatildi. Menga esa bizga boshchilik qilib kelgan ofitser poligon bo'ylab tanklar kesib o'tadigan yo'llarga bir hafta muddatda shlagbaumlari o'rnatish topshirig'ini berdi. Qo'limga kerakli asbob-anjomlarni olib ishga kirishdim. Oradan vaqt o'tgach, qancha harakat qilmayin, aytilgan muddatda vazifani bajarolmasligimni tushunganman.

Topshiriqni vaqtida bajara olmayotganimdan xunob bo'lib turgan joyimda men o'qigan harbiy bilim yurtini avvalroq tamomlagan kapitan Mezonov yonimga keldi-da, holatim sababini so'radi. Vaziyatni batafsil tushuntirib berganimdan so'ng o'zining mashinasi kalitini berdi. Yonimga ishongan safdoshlarimni olib, qo'shni harbiy qismdan mutaxassis harbiylardan ko'mak so'rashimni aytdi. Bir-ikkita serjantlarni olib qo'shni harbiy qismga bordim-da, o'zim bilan shlagbaum o'rnatadigan bir necha kishidan iborat kichik guruhni olib qaytdim. Uni qarang, mutaxassis

olyapti. Jarayon boshlandi. Eng birinchilardan a'lo bahoga o'qiydigan kursantlar kirib ketdi. Oradan biroz vaqt o'tgach, yuzlari burushgan, qovoqlaridan qor yog'ayotgan holda chiqishdi. Keyin bilsak, imtihonga kirib chiqqanlarning barchasi past baho olgan ekan. Sababini so'rasak, Moskvadan kelgan general sinovga kirganlarning barchasiga biletdagi savollarni bermasdan, o'zining tajribasidan kelib chiqqan holda sinayotgan ekan.

Birpasda navbatim keldi. Imtihonga kirayotganimda past baho olib chiqqan kursantlarning natijasidan g'azablangan ustozlarimizdan biri: "sening navbating, kir ichkariga" deya yoqamdan ushladi-da, bilimlarimiz o'lchanayotgan xonaga itarib yubordi. Bunga sabab esa mening rus tilini yaxshi bilmasligim edi.

Ustozimga jahl qilgancha, biletlar turgan stolga yaqinlashib, savollarni olishga qo'l cho'zdim. Hali biletlarga qo'lim yetib bormasdan, imtihon olayotgan general og'zaki savol bera boshladi. Birdan ichimdan nimadir uzilgandek bo'ldi. Qo'rquvdanmi yo hayajondanmi peshonamdan qora ter oqa boshladi. Imtihon oluvchi yo'g'on ovozda qayerdan ekanligimni so'radi. Ming bir xayol va titroq bilan Farg'ona viloyatining Rishton tumanidan ekanligimni aytdim. Shu zahoti yonidagi xaritaga burildi-da, Rishton tumanini topib berishimni so'radi. Peshonamdan sharsharadek oqayotgan ter birzum to'xtagandek bo'ldi. Maktabda geografiya fanini yaxshi o'qiganim uchun hech ikkilanmasdan tug'ilib o'sgan yerimni xaritada ko'rsatdim. Tezda javob qaytarganimdan hayratlangan nazoratchi xaritani yaxshi bilasanmi, deya so'radi-da, yana xaritada Kaliningrad

viloyatini topishimni so'radi. Ko'rinishidan ushbu savol qiyin edi. Sababi ushbu viloyat anklav hudud bo'lib, Boltiqbo'yi davlatlarining o'rtasida joylashgan. Xaritada ham Kaliningrad deya ko'rsatilmagan. Ma'lum bir raqam bilan raqamlab qo'yilgan. Buni ham bilganim bois tezkorlik bilan shu raqamni ko'rsatib Kaliningrad viloyatini xaritada topib berdim. Shu-shu birinchilardan bo'lib imtihonni a'lo bahoga topshirib chiqqan kursantga aylanganman.

**- Endi yosh harbiy xizmatchilarga xizmat davomida asqatadigan maslahatlaringizni bersangiz.**

- O'sha davrlarda, ya'ni o'qishni tugatib endi ofitser bo'lib, faoliyat yurita boshlaganimda ko'p qiyinchiliklar oldimdan chiqqan. Ularga yechim topish uchun muddatli harbiy xizmatchi yoki serjant bo'ladimi, nimani bilmasam, ofitserman demasdan o'z ishining mutaxassislariga

murojaat qilganman. Kerak bo'lsa askarlar bilan yonma-yon turib bilmaganlarimni o'rganganman. Sababi ularga bitta vazifa yuklatiladi. Shu vazifani yil davomida ipidan ignasigacha o'rganadi va o'z ishining zo'r mutaxassisiga aylanadi.

Xizmat davrimda ko'p muammolarga duch kelganman. Ularni o'z vaqtida yechish yoki yechimini topmaslik o'zimga bog'liq bo'lgan. Agar o'zimga qat'iyat, ishonch bo'lmaganda men yo'limda uchragan to'siqlardan o'tolmas edim. O'zimdagi qo'rquvni, manmanlikni yengib, kerakli narsalarni o'rgandim va o'z kasbimning mutaxassisi bo'lishga harakat qildim.

Afsuski, xizmatga endi kirib kelgan harbiy xizmatchilarimiz o'zidan pastroq darajadagi harbiy xizmatchilardan so'rab o'rganishdan uyaladi. Bu narsadan uyalgan odam faqat yutqazadi.



Hozirgi yosh ofitserlarimizdan o'zi bilmagan narsani so'rab o'rganishdan tortinmaslikni, manmanlikni bir chetga surib, malakasini mustahkamlashni so'ragan bo'lardim. O'zi bilmadimi, so'rab o'rganishning hech yomon tarafi yo'q.

Shuningdek, yana bir muammolarimizdan biri, ofitserlar o'zlarining qo'l ostidagi harbiy xizmatchilar bilan kamroq shug'ullanadi. Qo'l ostingizdagi harbiy xizmatchilarning nimaga qodirligini va oilasida muammolari bor-yo'qligini bilmasangiz, ular bilan ishlay olmaysiz-ku. Misol uchun, oilamda katta muammo bor. Boshlig'im esa topshiriq bergan. To uyimdagi muammo hal bo'lmaguncha ko'nglim joyiga tushmaydi. Topshiriqni ham o'lda-jo'lda bajarishim mumkin. Shuning uchun har bir xodim bilan alohida ishlash, ularning nimaga qodir ekanini, oilasidagi vaziyatlarni bilish bugun juda muhim.

**"Vatanparvar" muxbiri  
leytenant  
Mansurbek JABBOROV  
suhbatlashdi.**



baribir mutaxassis-da. Kunlab bajarayotgan ishimni bir kunga qolmasdan bitirib tashladi. Shunda bilganman qilib bo'lmaydigan ishning o'zi yo'qligini. Faqat yechimini topsa kifoya ekan. Bilmagan narsani esa kattalikka olmasdan so'rab o'rganish kerak ekan. Zero so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

To'rtinchi kursimiz. Eng muhim imtihonlardan birini topshiryapmiz. Sinovlarni esa Moskva shahridan kelgan general



## Harbiy ta'lim

# MAGISTRATURAGA NOMZODLARNI SARALASH MEXANIZMI

(O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HARBIY XAVFSIZLIK VA MUDOFAA UNIVERSITETI MISOLIDA)

O'zbekiston Respublikasi harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti – milliy armiyamiz uchun yuqori malakali harbiy kadrlar tayyorlovchi oliy harbiy ta'lim muassasasi hisoblanadi. Ta'kidlash o'rinliki, bugungi kunda mazkur ta'lim muassasasining magistratura bosqichiga o'qishga kirish uchun nomzodlarni saralash, tanlov o'tkazish va uni amalga oshirish "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni, shuningdek mudofaa vazirining tegishli buyrug'i talablariga asosan amalga oshirilmoqda.

Bu borada universitetning magistratura mutaxassisliklari bo'yicha o'qish uchun O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida haqiqiy harbiy xizmatni o'tayotgan va **quyidagi talablarga javob beradigan ofitserlar tanlov asosida qabul qilinishi belgilangan:**

tayanch oliy harbiy ma'lumotga va bakalavr darajasiga ega bo'lganlar; ofitserlik lavozimlarida kamida 5 kalendar yil xizmat qilgan, kadrlar zaxirasiga kiritilgan, malaka oshirish fakultetlarida tahsil olgan, bunda asosiy komandirlik va shtab lavozimlarida – batalyon (*divizion*) komandiri va uning o'rinbosarlari, ularga teng va yuqori lavozimlarda xizmat o'tayotganlar; o'qishga kirish yilining **31-dekabr kuniga qadar 40 yoshdan** oshmagan bo'lishi lozim.

Magistratura mutaxassisliklari bo'yicha o'qish muddati ikki yilni tashkil etib, o'qish **sentabr** oyidan boshlanadi.

Nomzodlarni dastlabki tanlashni **rejalashtirish va o'tkazish** maqsadida magistraturaga kelgusi yili o'qishga kirish uchun istak bildirgan ofitserlar har yili **25-noyabr** kuniga qadar bevosita komandiri (*boshlig'i*)ga bildirgi bilan murojaat qiladi. Bildirgi o'rnatilgan tartibda hisobga olinib, ofitserning shaxsiy yig'majildiga birkiritiladi.

Tegishli buyruq talablariga ko'ra, o'qishga kirish yilining 15-aprel kuniga qadar harbiy okrug kadrlar bo'limiga nomzodlarning **quyidagi hujjatlari** yuboriladi:

ofitserning boshqaruv hujjatlar talablariga asosan rasmiylashtirilgan shaxsiy yig'majildi; aniqlik kiritilgan yaqin qarindoshlari to'g'risida obyektiv-ma'lumotnoma; xizmat varaqasi; agar mavjud bo'lsa, qonunchilik hujjatlariga muvofiq o'qishga kirishda imtiyoz beruvchi hujjatning asl nusxasi; davlat sirlari bilan ishlash uchun ikkinchi shakl bo'yicha ruxsatnoma. Shu bilan birga, magistraturaga o'qishga kirish uchun nomzodlar bilan dastlabki saralashni uyushqoqlik bilan o'tkazish maqsadida o'qishga kirish yilining **25-aprelidan 30-mayigacha** harbiy okruglarda

yig'in tashkillashtiriladi. Yig'in vaqtida nomzodlarni kasbiy tayyorgarlik, axborot texnologiyalari asoslari, jismoniy tayyorgarlikdan kirish sinovlariga tayyorlash hamda chet tilni o'rganish bo'yicha mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Bundan tashqari, hujjat topshirgan yilning **25-aprelidan 1-mayigacha** amaldagi boshqaruv hujjatlar talablariga asosan birlamchi tibbiy ko'rik o'tkaziladi. Birlamchi tibbiy ko'rik natijalariga ko'ra, **"Magistraturaga o'qishga kirishga yaroqsiz"** deb topilgan ofitserlar nomzodlar ro'yxatidan chiqariladi. Tibbiy ko'rikdan o'tkazish natijalariga ko'ra, nomzodlarga nisbatan harbiy tibbiy komissiya tomonidan "Keyingi tibbiy ko'rikdan o'tkazish sharti bilan statsionar ravishda tekshiruvdan o'tishi lozim" xulosasi qabul qilinganda, ular nomzodlar ro'yxatidan chiqarilmasdan, yig'in tugagunga qadar davolanib, birlamchi tibbiy ko'rikdan qayta o'tkaziladi.

Dastlabki saralash natijalari bo'yicha bayonnomasi rasmiylashtiriladi va harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni tomonidan tasdiqlanadi. Bayonnomaning nusxasi o'qishga kirish yilining **10-iyun** kuniga qadar kadrlar bosh boshqarmasiga yuboriladi. Mudofaa vazirligi kadrlar bosh boshqarmasi tomonidan joylarda o'tkazilgan dastlabki saralashdan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlarning ro'yxati umumlashtirilib, universitetga yuboriladi.

Nomzodlar bilan **yakuniy saralash tadbirlarini tashkillashtirish** va o'tkazish tadbirlari universitetning qabul komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi. Yig'in mobaynida nomzodlar bilan amaldagi rahbariy hujjatlar talablariga asosan yakuniy tibbiy ko'rik hamda kasbiy tayyorgarlik, axborot texnologiyalari asoslari, jismoniy tayyorgarlik va test sinovlari o'tkaziladi.

Kirish sinovlarini o'tkazish shakli va fanlar bo'yicha sinov dasturlari hamda nomzodlarning bilimlarini baholash mezonlari universitet boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

Tibbiy ko'rikdan muvaffaqiyatli o'tgan va kasbiy tayyorgarlik, axborot

texnologiyalari asoslari, jismoniy tayyorgarlik bo'yicha qoniqarli baho olgan nomzodlarga **quyidagi fanlar** bo'yicha savollarni o'z ichiga olgan test sinovlarida qatnashish uchun ruxsat beriladi:

umumiy taktika; ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik; nomzodning tanlovi bo'yicha ingliz, nemis, fransuz tilidan sinov.

Sinovlar davomida xorijiy tillarni bilish bo'yicha B2 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lgan nomzodlar chet tildan kirish sinovida ishtirok etmaydi va chet tildan 20 ball qo'yiladi.

Kirish sinovlari to'rt ballik tizim bo'yicha "a'lo", "yaxshi", "qoniqarli" va "qoniqarsiz" ko'rinishida baholanadi. Kirish sinovlari natijalari baholash qaydnomasiga kiritiladi va tegishli kichik komissiya raisi va a'zolari tomonidan imzolandi. Bunda nomzodlarga **kirish sinovlarini qayta topshirish man etiladi.**

Kasbiy tayyorgarlik bo'yicha sinovda nomzodlarning bilimlari bilet savollariga og'zaki javob berish natijalari bo'yicha baholanadi.

Axborot texnologiyalari asoslari bo'yicha sinov kompyuter sinfida elektron hisoblash texnikalarida topshiriqlarni amaliy bajarish shaklida o'tkaziladi.

Nomzodlarning jismoniy tayyorgarligini tekshirish ulardan **quyidagi mashqlar** bo'yicha me'yorlarni qabul qilish orqali amalga oshiriladi:

2-mashq (100 metrga yugurish);  
5-mashq (3 000 metrga yugurish);  
9-mashq (*turnikda tortilish*).

Nomzodlarning jismoniy tayyorgarlik darajasi Mudofaa vazirligi qo'shinlarining jismoniy tayyorgarlik bo'yicha qo'llanma talablari asosida baholanadi.

Belgilangan o'quv fanlari bo'yicha test sinovlari universitetdan tayinlangan komissiya tomonidan ko'p variantlilik, individual asosda barcha nomzodlar uchun **bir vaqtda**, odatda, yozma shaklda yoki nazorat texnik vositalarini qo'llab o'tkaziladi.

Nomzod qabul sinovi yoki test natijasidan

norozi bo'lgan taqdirda, sinov yoki test natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab, 24 soat davomida qabul komissiyasi raisi nomiga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunda qabul komissiyasi raisiga arizani 2 sutka mobaynida ko'rib chiqish majburiyati yuklangan.

Nomzodlarni **o'qishga qabul qilish tartibiga** ko'ra, o'qishga qabul qilinishi maqsadga muvofiq bo'yicha umumiy xulosalar kasbiy tayyorgarlik, axborot texnologiyalari asoslari, jismoniy tayyorgarlik va test sinovlari natijalarini umumlashtirish asosida qabul komissiyasining bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Nomzodlarni o'qishga qabul qilishda **test sinovlari natijalari hal qiluvchi** hisoblanadi. Test sinovlari natijalari bo'yicha olingan ballar bir xil (*teng*) bo'lgan taqdirda, kirish sinovlarini topshirish vaqtida kasbiy tayyorgarlik bo'yicha yuqori baho olgan nomzod ustunlik huquqiga ega.

Mudofaa vaziri tomonidan qabul komissiyasining bayonnomasi tasdiqlangandan so'ng o'qishga qabul qilingan ofitserlar vazirning tegishli buyrug'i bilan egallab turgan lavozimlaridan ozod etilib, magistraturaga tinglovchi lavozimlariga tayinlanadi. Ularni o'qishga yetib kelish muddati universitet rahbariyati tomonidan yetkaziladi.

Umuman olganda, bugungi kunda magistratura bosqichiga nomzodlarni saralash, tanlov o'tkazish va uni amalga oshirish tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlar talablari asosida olib borilmoqda. Bunda asosiy e'tibor nomzodlarning tayyorgarligi uchun munosib sharoitlar yaratish hamda saralash tadbirlarini sifatli o'tkazish maqsadida dastlabki bosqichda yig'inlar tashkillashtirilishi orqali ularning bilim-saviyasini oshirishga, shuningdek intellektual salohiyati yuqori bo'lgan sog'lom, jismonan baquvvat nomzodlarni saralashga qaratilmoqda.

**Podpolkovnik  
Alisher KENJAYEV,  
Mudofaa vazirligi  
kadrlar bosh boshqarmasi  
boshqarma bo'lim boshlig'i**



## Mulohaza

## MA'NAVIYATIMIZ

## KUSHANDASI

Kunlar isigani sayin oziq-ovqat do'konlarining oldiga turli rangdagi salqin ichimliklar solingan qutilar terila boshlanadi, beixtiyor yozning ko'nglimga g'ashlik soladigan ayrim manzaralari xotirga kelaveradi: tarkibidagi narsalari tabiiy emasligi notabiiy ranglaridanoq ko'rinib turgan turli nomdagi salqin ichimliklarni katta-yu kichik sotib olishi avjiga chiqadi. Kim qo'lini qachon yuvgani haqida o'ylab, kim o'ylab ham o'tirmay, suvni kimdir andisha bilan chetga o'tib ichadi, kimlar yo'l-yo'lakay simiradi. Kattalarki shunday qilgach, issiq kunda o'zidan yoshi ulug'lar yetagida sayrdami, bozor-u do'kondami yurgan bolalardan nima gina? Ularning ko'pchiligi ko'chaga chiqdi deguncha suv, asosan, rangli suvlar oldirish ilinjida bo'ladi.

Yozning issig'ida qizib turgan badanga muzdekkina suv juda yoqandek tuyuladi. Ammo ajdodlarimiz faqat qishning sovuq kunlarida emas, balki saraton jazirasida ham issiqqina choy ichgani, bu udum asrlar davomida o'zgarishsiz davom etib kelgani sababi bilan qiziqqanmisiz? Mutaxassislarning aytishicha, qish kunida o'z-o'zidan odamga issiq ichimlik va taomlar juda yoqadi. Yozda ham qizib turgan kishining ichki a'zolariga harorati keskin sovuq emas, balki iliq-issiq narsalar iste'mol qilish foydali ekan. Bu holat insonni ikki fazilat – sabrli va tibbiy madaniyat sohibi bo'lishga ham o'rgatadi. Hadisi sharifda suvni o'tirib va uch marta bo'lib-bo'lib ichishga chaqirilishi hikmati ham sabr-u qanoat va salomatlik tarbiyasiga bevosita bog'liq, inshaalloh.

Bular hammamizga tanish vaziyatlar. Lekin salqin ichimliklar bilan bog'liq yana boshqa jihatlar borki, ular diqqatni jalb qiladigan ranglar-u jimjimador e'lonlar panasida "pisib" yotadi. E'tibor bersangiz, yelim idishlardagi rang-barang salqin ichimliklarni isitib ichish tavsiya etilmaydi. Sababi ularning harorati ko'tarilgani sayin rangi boshqacha bo'la boradi. Bu degani – harorati oshganda bu ichimliklarning tarkibida kimyoviy o'zgarish bo'ladi, qaysidir mevaning ta'mini, hidini beradigan kimyoviy modda idishning tagiga cho'kadi. Endi tasavvur qiling: muzdek ichimlik ichilganda, u kishi oshqozon, ichaklari harorati ta'sirida isiydi, undagi kimyoviy moddalar ajralib ichki a'zolariga cho'kadi. Bu cho'kindilar yig'ilib-birlashib toshga aylanadi, bu fikrlarni ilmiy manbalardan o'qiganlar, kuyinchak shifokorlardan eshitganlar, afsuski, juda ozchilikni tashkil etadi. Bu ham yetmagandek, ayni yoz kunlaridan boshlab bir qator mahalliy telekanallarda salqin ichimliklar bozorini qizitib, ularni bo'lib ichishga chorlaydigan shou dasturlar musobaqalari qizib ketadi. Ya'ni qay bir salqin ichimlikning qopqog'iga yozilgan pul yoki qimmatbaho sovg'ani yutib olganlar studiyalarga jamlanadi; respublikamizning olis-u yaqin hududlaridan kelgan oilalar a'zolari millionlab tomoshabinga

yutuqqa ega bo'lish uchun necha ming-ming so'mlik yoki necha yuzlab idishdagi suvni sotib olganlarini zavq-shavq bilan so'zlab beradi.

Shu o'rinda bir tanishimning gaplari yodimga tushdi: "Xotinimga mehmondorchilikka kiyish uchun ko'ylak sotib olishga pul berdim. Oradan vaqt o'tdi, qaragam, xotin onasinikiga yana ohori ketgan ko'ylakda boryapti. "Ko'ylak olmadingmi?" desam, "Ee, u pullarni bolalaringiz qimmat-qimmat salqin ichimliklar olib tugatishdi", deydi.

Shunaqa, teleekranlarda kun-kunora suv ichish (*to'g'rirog'i, suv sotib olishga pulini va vaqtini isrof etish*) bo'yicha namoyish etiladigan shoular qahramoniga aylanish uchun kitob-daftar, meva, aqlni rivojlantiradigan qo'llanmalar o'rniga salqin ichimlik xarid etishga ishqiboz bolalar soni yildan yilga ko'paymoqda, ularning qanchasini kap-katta ota-onalari, hatto bobo-yu buvilari ham qo'llab-quvvatlab turibdi. Shu o'rinda shifokorlarga ham jiddiy e'tirozimiz bor: ularning to'g'ri ovqatlanish me'yorlari, tartiblari haqidagi unda-bunda aytgan gaplari odamlar sog'lig'ini yemirishga xizmat qiladigan har xil ichimlig-u shirinliklar reklamalari oldida chivinning fil oldidagi vizillashiga o'xshab qolyapti.

Tarixiy manbalar, mumtoz adabiyotimiz namunalari, xalq og'zaki ijodimiz mazmun-mohiyati haqida mushohada yuritsak, ularning birortasida mehnat qilmasdan, jon qiynamasdan, ezgu ishlarga hissa qo'shmasdan halol boyluk yoki chinakam obro'ga ega bo'lish haqida gap-so'z, g'oya yo'q. Ko'pkari, ulug' musobaqalarida yigitlar mohir chavandozligi evaziga; qorilar Qur'oni karim tilovati mahoratiga qarab; chevar qiz-u ayollar tikuvchilik san'ati sharofatidan; pazandalar elga manzur taomlar tayyorlab; quruvchi-yu muhandislar qurgan imoratlari boisidan e'tibor, hurmat, izzat-ikrom topgan. Asrlar osha ma'naviy meros bo'lib kelayotgan ilmiy, badiiy adabiyotlarimizda inson kamolotining ildizlari bilim, hunar, mehnat, intilish, izlanishdan oziqlanishi, teranlashib borishi yorqin qahramonlar, hayotiy misollar yordamida avlodlar ongiga singdirib kelindi.

Endi... 3-4 ming so'm to'lab, sotib olingan qog'ozchalardagi raqamlarni "ochib" boy bo'lib ketish ilinjida navbatda turganlarni; yutuqli qopqoqchani topib olish uchun salqin ichimliklarning qopqog'ini erinmay, irganmay to'playotganlarni; har xil norasmiy tashkilotlar e'lon qilgan aksiyalar g'olibi bo'lish ilinjida o'zini-yu o'zgalarning vaqtini uvul qilayotganlarni uchratish oddiy holat bo'lib qoldi. Uyalasan, mehnatsiz, jon kuydirmasdan lotereya o'yinlari, har xil aksiyalar, shoularda qatnashib, nimagadir ega bo'lish ishtiyoqi – o'z nomi bilan ataganda, tamagirlik, ilinj. Bunday ma'naviy darddan ota-bobolarimiz hazar qilgan. "Birovning moliga ko'z olaytirma, xomtama bo'lma, yerda tushib yotgan narsaniyam olma" – mana shunday tarbiya berganlar. Yerda yotgan narsani uyiga olib kirgani uchun bolasining yaxshilab ta'zirini bergan ota-onalar haqida ko'p eshitganmiz. Shu ruhda tarbiyalanganmiz.

1981–1994-yillar davomida Toshkentning "Xalqlar do'stligi" maydoni yonidagi uylardan birida yashagandik. O'sha paytda ham poytaxtning eng ko'rkam joylaridan sanalgan bu maydon doim xorijiy sayyohlar bilan gavjum edi. U yerdan tez-tez o'tishga to'g'ri kelar, har safar bir manzaraga guvoh bo'lardim: sayyohlarning avtobusi kelib to'xtashi bilan bir necha o'zimizning bolalarimiz ularning yoniga chopib borishar, o'rab olishar, sayyohlar ularga saqichmi, shirinlikmi berishini ochiq-oydin kutishardi. Onda-sonda paydo bo'lgan militsiya xodimining hushtagidan bolalar tarqab ketar, keyin yana sayyohlar mashinasiga chopishardi.

Bir kuni... oqsoqligidan ancha qiynalib yurgan bir sayyoh sheriklaridan orqada qolib

ketdi, Unga o'n yoshlardagi bola hech orqasidan qolmay, "yopishib oldi". Sayyoh "Hech narsam yo'q" ma'nosida imo-ishora qilar, ammo bola undan hech "uzilmasdi". Shu payt avtobusga chiqib o'tirgan sayyohlardan biri pastga tushdi, haligi manzarani suratga oldi va bolaga nimadir tutqazdi... Bola xursand chopqillab ketdi, sayyohlar yuzidagi ifoda nomini aytgim kelmaydi, lekin xotiramdan o'chmaydi. Bilmadim, nimagadir ayni kunlardagi o'tmas mollarning xaridorini ko'paytirish uchun sovg'alar e'lon qilinib uyushtirilgan shoular qalbimdan alam-achchig'i arimaydigan o'sha manzaralarni yodga solaveradi.

"Bolalarimiz o'qishga qiziqmaydi, hunar o'rganishga rag'bat yo'q... Lekin ota-onasidan qimmatbaho telefon, mashina, chiroyli kiyimlar olib berishni talab qiladi", bunaqa nolishlar tez-tez quloqqa chalinadi. Avvalo, biz kattalar uyg'onaylik. Jismoniy, ma'naviy salomatlikning qadr-u qimmatini anglamas, bolalarimizga anglatmas ekanmiz, toki nafsimizga oriyat qalqon bo'lmas ekan, koshonalar ichra ham qashshoqligimizcha qolaveramiz.

**Muhtarama ULUG'OVA,**  
O'zbekiston Respublikasida  
xizmat ko'rsatgan  
madaniyat xodimi



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi.

“Jadidlarning ma’naviy qahramonligi” tanloviga

# TURKISTON MILLIY-OZODLIK HARAKATI VA USMONXO‘JA PO‘LATXO‘JAYEVNING IJTIMOY-SIYOSIY POZITSIYASI



XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy taraqqiyot borasida zamon talablari darajasida rivojlana olmadi. Ayniqsa, oxirgi hukmdorlar – Abdulahadxon (1885–1910) va Said Olimxon (1910–1920) davrida amalga oshirilgan islohotlar va jamiyatni modernizatsiya qilishga qaratilgan urinishlar kutilgan natijani bermadi. Ta’lim tizimining ortda qolgani, dunyoviy fanlarning chetga surilishi, o’qitish arab tilida, kundalik muloqot esa o’zbek tilida, rasmiy hujjatlarning esa fors-tojik tilida yuritilishi singari omillar jamiyat taraqqiyotiga to’siq bo’lib xizmat qildi.

Mazkur muhitda Buxoroda taraqqiyparvarlik harakati shakllandi. Bu harakat vakillarining dunyoqarashi shakllanishida bir qator tarixiy shaxslar – Abo Nasr Qursaviy (1776–1812), Shihobiddin Marjoniy (1818–1889) va Ahmad Donish (1827–1897) ning ijtimoiy adolat, islohot zarurati, diniy va dunyoviy ta’lim, ozodlik va boshqaruv tizimidagi islohotlar borasidagi qarashlari katta ta’sir ko’rsatdi. Ularning g’oyalari Usmonxo’ja Po’latxo’jayev singari yosh ziyolilar tafakkurining shakllanishida muhim rol o’ynadi.

Sharq olamidagi milliy uyg’onish, o’zligini anglash, ma’rifatparvarlik harakati Turkiston musulmon jamoasida ham o’z aksini topdi. Aynan shu davrda mintaqada matbuotchilik faoliyati shakllanib, Turkiston ziyolilari uchun yangi minbarga aylandi. Abdurashid Ibrohim, Ismoil Gaspirinskiy kabi ma’rifatparvarlarning nashr etgan gazetalarida Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy holat keng yoritilgan. Turkiya, Eron, Afg’oniston, Misr, Hindiston matbuoti orqali Usmonxo’ja va boshqa taraqqiyparvarlarning g’oyalari xalqaro miqyosda ham ilgari surilgan.

Arab, fors va turkiy tillarni, shuningdek diniy va dunyoviy fanlarni chuqur egallagan Buxoro yoshlari orasida norasmiy tarzda tarqatilgan matbuot materiallari keng o’qilar edi. Ayniqsa, “jadidlik g’oyasining otasi” deb e’tirof etilgan Ismoil Gaspirinskiyning 1893-yildagi Buxoroga tashrifi va u yerda yirik savdogar Po’latxo’ja – Usmonxo’janing otasi bilan uchrashuvi alohida ahamiyatga ega. Po’latxo’janing “Muzaffariya” maktabini tashkil etuvchilar qatorida ishtirok etgani uning o’g’li tarbiyasida ma’rifatparvarlik

muhitining mavjud bo’lganidan darak beradi.

Shuningdek, Usmonxo’janing dunyoqarashi shakllanishida uning yoshligida amalga oshirgan sayohatlari, 1898-yildagi Andijon qo’zg’olonida bevosita ishtiroki, otasining savdo ishlariga yordamlashgani kabi omillar muhim rol o’ynagan. Uning tafakkurida ozodlik va ma’rifat uchun kurash g’oyalari aynan shu hayotiy tajribalar, shuningdek 1905–1907-yillardagi Rossiya inqilobi, 1905–1911-yillardagi Eron inqilobi, 1908-yilgi “Yosh turklar” inqilobi va ilk mintaqaviy matbuot – “Buxoroyi Sharif” va “Turon” gazetalarining (1912–1913) ta’siri ostida shakllangan.

Usmonxo’ja Po’latxo’jayevning ma’rifiy faoliyati Buxoro amirligidagi islohotchilik harakatining muhim qismidir. U 1912-yilgacha Buxorodagi tatar maktablari faoliyatida bevosita ishtirok etgan va yangi usuldagi ta’lim tizimini chuqur o’rganishga harakat qilgan. 1909–1912-yillarda Usmonxo’janing Turkiyadagi tahsili uning dunyoqarashini kengaytirib, turk ma’rifatparvarlari hamda “Yosh turklar” harakati bilan aloqalar o’rnatishiga sabab bo’lgan. Turkiyadan qaytgach, u Buxoroda o’z

maktabiga asos soladi. Mazkur o’quv dargohi qisqa muddatda mashhurlikka erishib, 200 nafarga yaqin o’quvchini qamrab olgan. Ushbu maktabda ta’lim jarayoni sinfdars tizimida tashkil etilib, darslar belgilangan tanaffuslar orqali olib borilgan. O’quvchilar zamonaviy talablarga javob beruvchi, yorug’ sinfxonalarda – stol-stullar, globus, xaritalar, ko’rgazmali qurollar bilan jihozlangan muhitda ta’lim olgan. Darsliklarda diniy va dunyoviy fanlar uyg’un holda o’rgatilgan, shuningdek, odob-axloq, fuqarolik madaniyati bo’yicha maxsus mashg’ulotlar tashkil etilgan.

Maktabda ijtimoiy tenglik tamoyiliga amal qilingan: badavlat oilalarning farzandlaridan o’qish haqqi undirilgan bo’lsa-da, kam ta’minlangan va yetim bolalar uchun ta’lim bepul tashkil etilgan. Usmonxo’ja Po’latxo’jayev o’zi ham aniq fanlardan saboq bergan, o’quv yili yakunida esa ota-onalar ishtirokida imtihonlar o’tkazilgan.

Tadqiqotlarda maktabda foydalanilgan darsliklar, pedagogik qo’llanmalar, o’qituvchilarning faoliyati haqida aniq ma’lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, Buxoro amirligi siyosiy agentligi idorasi vakili Shulganing maktabga tashrifi bu



ta’lim muassasasi jamiyatda muhim mavqega ega bo’lganidan dalolat beradi.

Shuningdek, Usmonxo’janing “Shirkati Buxoroyi Sharif”, “Shirkati Barakat”, “Ma’rifat”, “Shirkati Jadidon”, “Kutubxonayi Ma’rifat” kabi madaniy-ma’rifiy jamiyatlar faoliyatidagi ishtiroki ham uning jamiyatni uyg’otishga qaratilgan keng qamrovli faoliyatidan dalolat beradi. Bu tashkilotlar orqali u Turkiston ziyolilarining ma’rifatparvarlik, iqtisodiy mustaqillik va ijtimoiy adolat haqidagi qarashlarini amaliyotga tatbiq etishga harakat qilgan.

Usmonxo’ja Po’latxo’jayevning Buxoro Xalq Sho’ro Respublikasi (BXSHR) rahbariyatidagi faoliyati 1920–1922-yillar oralg’ida Buxoro siyosiy tarixida muhim bosqichlardan birini tashkil etadi. U 1920-yil 14-sentabrda Fayzulla Xo’jayev raisligida tuzilgan 11 kishilik Buxoro Nozirlar Sho’rosi (BNS) tarkibiga moliya noziri sifatida kiritildi. Ushbu lavozimda ishlagan yillarda Po’latxo’jayev Buxoroda iqtisodiy barqarorlikni tiklash, milliy pul birliklari – so’m, kumush tangalar qadriyatini saqlab qolish, inflyatsiyaga qarshi kurashish, pul muomalasini tartibga solish, shuningdek, kichik savdogar va hunarmandlarni soliq yuki ostidan ozod etish kabi masalalarni ko’tarib chiqdi. U qizil armiya ehtiyojlari uchun undirilayotgan soliqlarning kamaytirilishini ham talab qilgan.

Moliyaviy muomalada bir vaqtning o’zida bir nechta valyuta – BXSHR tangalari va qog’oz pullari, Rossiya sovet pullari (*chervonets*), Turkiston ASSR bonlari, hamda sobiq amirlik davridagi pul birliklari birgalikda amal qilgan. Usmonxo’ja moliya noziri sifatida bir qancha farmonlar chiqarib, ularning ijrosini qat’iy nazoratga olgan.

1921-yilning birinchi yarmi davomida Po’latxo’jayev iqtisodiy ishlar noziri, harbiy



nozir muovini va BXSHR Iqtisodiy Kengashi a'zosi sifatida ham faoliyat yuritdi. Ayniqsa, Sharqiy Buxorodagi ishtiroki alohida e'tiborga loyiq. Buxoro amirligining oltin xazinasini qizil armiya tomonidan olib chiqib ketilgach, qolgan qismini saqlab qolish va hisobga olish bo'yicha tuzilgan komissiyada Po'latxo'jayev faol qatnashdi. U BXSHR xazinasini shakllantirish tashabbusi bilan chiqib, mazkur masalaga alohida e'tibor qaratgan.

Tadqiqotlarda sovet adabiyotlarida ilgari surilgan da'volarga zid ravishda, Usmonxo'ja oltinlarni xorijga olib chiqib ketmaganligi tarixiy dalillar orqali isbotlab berilgan. Jumladan, Buxoro hukumati tomonidan Turkiya Respublikasiga ko'rsatilgan 100 million oltin so'm miqdoridagi moddiy yordam yuzasidan ham izohlar keltirilgan. Bu mablag' Po'latxo'jayevning shaxsiy mablag'i bo'lmay, BXSHR xazinasidan rasmiy hukumat qarorlari asosida, Fayzulla Xo'jayev va boshqa yetakchilarning roziligi bilan ajratilgan.

1921-yil 18-23-sentabr kunlari bo'lib o'tgan Buxoro xalq vakillarining II qurultoyida siyosiy tuzilmalarda o'zgarishlar yuz berdi. Buxoro Inqilobiy Qo'mitasi tugatilib, o'rniga BXSHR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (BXSHR MIQ) tashkil qilindi. Po'latxo'jayev ushbu tuzilmaning raisi lavozimiga saylandi va 1921-yil 23-sentabrdan 1922-yil 10-aprelgacha bu lavozimda ishladi.

MIQ raisi sifatida Usmonxo'ja 1921-yil 24-sentabrda chiqargan 1-sonli buyrug'ida Buxoro Inqilobiy Qo'mitasining tugatilgani va yangi tashkilot faoliyat boshlayotganini rasmiylashtirdi. U dastlab ikki nafar, keyinchalik 18 nafar MIQ a'zolari bilan Sharq-u Buxoroda (*hozirgi Surxondaryo va Tojikiston hududlarida*) favqulodda vakil sifatida faoliyat yuritdi. Uning faoliyati davomida oziq-ovqat va kiyim-kechak taqchilligi, ocharchilikka qarshi choralar ko'rildi, "bosmachilar" bilan qizil armiya qismlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni yumshatish harakatlari olib borildi. Bu jarayonda u Anvar Posho bilan yozishmalar olib borgan va uchrashuv o'tkazgan. Shuningdek, sovet harbiy qismlarining haddan tashqari zo'ravon siyosatiga nisbatan norozilik bildirgan.

1921-1922-yillarda Usmonxo'janing Volgabo'yi va Uraloldi mintaqalarida ocharchilikka uchragan aholiga yordam



ko'rsatish, shuningdek sobiq amirlik ag'darilgach, Afg'onistonga o'tib ketgan minglab turkman muhojirlarini yurtiga qaytarishdagi sa'y-harakatlari ham tarixiy manbalar asosida tadqiq etilgan.

1922-yil 10-aprel kuni Usmonxo'ja Po'latxo'jayev o'z siyosiy faoliyatining navbatdagi bosqichini boshlab, Buxoroni tark etib, qo'shni Afg'oniston hududiga o'tdi. U bu yerda turli "bosmachi" guruhlarini birlashtirish, sovet hokimiyatiga qarshi yagona siyosiy va harbiy front tashkil etish, shuningdek, Buxoro milliy armiyasini tuzish g'oyasini ilgari surdi. Biroq Afg'onistondagi beqaror siyosiy vaziyat bu rejalarni amalga oshirish imkonini bermadi.

Muhojirlik yillarida Usmonxo'ja Afg'oniston, Turkiya, Polsha, Eron, Pokiston kabi davlatlarda yashab, o'zining siyosiy va ma'rifiy faoliyatini davom ettirdi. Uning umrining asosiy qismi Turkiya Respublikasining Istanbul shahrida o'tdi. Bu yerda u 1925-yilda tashkil etilgan Turkiston Milliy Birligi va 1927-yilda tuzilgan Turk yoshlar tashkilotining asoschilaridan biri sifatida faoliyat yuritdi. Sovet hokimiyatiga qarshi kurashayotgan tashkilotlar bilan aloqa o'rnatish va ularni birlashtirish yo'lida muhim sa'y-harakatlar olib bordi. Tadqiqotlarda Po'latxo'jayevning mashhur turkistonlik siyosiy muhojirlar – Mustafo Cho'qay va boshqird millatiga mansub mashhur sharqshunos olim Ahmad Zaki Validiy To'g'on bilan yaqin

hamkorlik qilgani ta'kidlangan. Jumladan, Usmonxo'ja Ahmad Zaki Validiy tomonidan tayyorlangan siyosiy dastur loyihasini fors-tojik tiliga tarjima qilib, Afg'oniston amiriga yetkazish, unga Turkiya pasporti olib berish kabi amaliy yordamlar ko'rsatgan.

Shuningdek, Usmonxo'ja 1920-yillarda Germaniya va Turkiyaga yuborilgan, biroq turli sabablarga ko'ra xorijda qolib ketgan BXSHR, XXSR va Turkiston ASSR sobiq talabalariga ko'maklashgani, ularning matbuot bilan aloqalarini yo'lga qo'yishga hissa qo'shgani manbalarda qayd etilgan. Ayniqsa, Ahmad Naim, Tohir Chig'atoy, Ibrohim Yorqin, Ahmadjon Ibrohim Uqoy kabi ziyolilar bilan birga "Yangi Turkiston" (1927-1931) va "Yosh Turkiston" (1929-1939) kabi jurnallarda faol publitsistik faoliyat olib bordi.

Bundan tashqari, Usmonxo'janing Afg'onistondagi BXSHR elchisi Hoshim Shoiq, Afg'oniston tashqi ishlar vaziri Mahmudbek Tarzi va hatto Turkiya Respublikasi Prezidenti Mustafo Kamol Otaturk bilan uchrashuvi, u bilan olib borilgan muzokaralar haqida tadqiqotlarda muhim ma'lumotlar berilgan.

Usmonxo'janing publitsistik merosi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Uning "Yangi Turkiston", "Yosh Turkiston", "Yaqin tariximiz" kabi nashrlarda chop etilgan 26 dan ortiq maqolalari, 1936-yilda alohida risola sifatida chop etilgan "Turkiston" asari, shuningdek, she'riy merosi tahlil qilingan. **Bu maqolalar tematik jihatdan quyidagicha tasniflanadi:**

Milliy-ozodlik ruhidagi siyosiy chiqishlar;

Turkiston va Afg'oniston tarixiga oid tahlillar; jahon siyosiy jarayonlariga munosabat;

mashhur tarixiy shaxslar hayoti va faoliyatiga bag'ishlangan tahliliy maqolalar.

Ushbu publitsistik faoliyat 1920-1930-yillardagi Turkiston tarixining siyosiy va madaniy manzarasini yoritishda muhim manba vazifasini o'taydi. Usmonxo'ja o'z maqolalarida nafaqat tarixiy voqealarga, balki Turkiston ziyolilari orasidagi mafkuraviy qarama-qarshiliklarga, xalqaro munosabatlarga va sovet rejimining mustamlakachilik siyosatiga ham e'tibor qaratgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkiston milliy uyg'onish harakatining yetuk vakillaridan biri bo'lgan. Uning faoliyati Buxorodagi ma'rifiy islohotlar, jadidlik g'oyalari, moliyaviy boshqaruvdagi samarali harakatlar, sovetlar davridagi siyosiy pozitsiyasi va muhojirlikdagi milliy kurash orqali o'z ifodasini topgan.

Usmonxo'ja Po'latxo'jayev Turkiston xalqlarining mustaqilligi yo'lida kurashgan, xalqaro maydonda turli tashkilot va nashrlar orqali bu g'oyani ilgari surgan. Uning publitsistik merosi tarixiy haqiqatni yoritish, milliy o'zlikni saqlash va jamiyatni uyg'otish yo'lida bebaho manba hisoblanadi.

Po'latxo'jayevning siyosiy va ma'rifiy faoliyati Turkiston tarixining murakkab davrlarida xalqni uyg'otishga, mustaqillikka undashga xizmat qilgan. Shunday ekan, uning ijtimoiy-siyosiy pozitsiyasini o'rganish nafaqat tarixiy haqiqatni anglash, balki hozirgi davrda milliy g'urur, tarixiy xotirani tiklash yo'lida ham muhim ahamiyatga ega.

**Sanjar AHMEDOV,**  
**Oriental universiteti**  
**dotsenti v.b.,**  
**tarix fanlari bo'yicha**  
**falsafa doktori.**  
**Kichik serjant**  
**Abbosxon**  
**SAFARALIYEV**



Ko'zgu



# DUNYO TAQDIRINI MA'NAVIYAT HAL QILADI



Ma'lumki, ta'lim va tarbiya tushunchalari hech qachon bir-biriga zid qo'yilmagan, qolaversa, ular o'rtasidagi chegara ham nisbiy, hatto ularni bir-biridan ajratish ham mumkin emas: biri po'st bo'lsa, biri mag'iz yoki aksincha. Xo'sh, qay biri po'st yoki mag'iz? Mabodo masalani shu taqlidda qo'yadigan bo'lsak, inson kamolida tarbiya muhimmi ta'lim, degan savolning paydo bo'lishi aniq. Xo'sh, ta'lim orqali tarbiyalashmi (*ta'limiy tarbiya*) yoki tarbiyalab, ta'lim berishmi (*tarbiyaviy ta'lim*)?

Aksariyat hollarda odam hayotida ta'lim muhim, ilm-bilimsiz (*savodsiz holda*) yashab bo'lmaydi, tarzida mulohaza qilinadi-yu, negadir hech kim "tarbiyasiz yashab bo'ladi" deb dangal ayta olmaydi. Mabodo shunday gap til uchiga kelib qolsa, dastlabki mulohazadanoq uni tiyamiz. Negaki tarbiya bilan hazillashib bo'lmaydi. Demak, inson kamolida tarbiya birlamchi ekan (*xuddi "Olim bo'lish oson, odam bo'lish qiyin", degandek*). Holbuki, ko'p (*aksariyat jami*) tartiblar ta'limni rivojlantirish, ta'limni qo'llab-quvvatlash zamiriga qurilgan. Masalan, talabaniing faoliyati fanlarni qay darajada o'rganganiga qarab baholanganidek, uning tarbiyasizligi tufayli o'qishdan haydalihi mumkinligini tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Yoki jamoat joyida o'z tarbiyasizligini oshkora namoyish etgan (*masalan, quchoqlashib turgan yigit-qiz yoki beo'xshov qiliq qilayotgan bola*) kishiga biror jazo tayinlanmagan.

Yaqinda bir hamkasb bilan ish yuzasidan mulqot qilishga to'g'ri kelib qoldi. U gapni dabdurustdan ta'na bilan boshladi: "Nega keyingi paytda yomon kinolarni ko'paytirib yuboryapsilar?" Aslida u biror rejissyor yoki kinoaktyorni tanimaydi, keyingi yillarda yaratilgan asarlardan bittasini ham batafsil ko'rmagan, ammo tinimsiz savol yog'dirar, aniqrog'i, maqolasini so'zma-so'z yozardi. Unga bildirilgan e'tirozlarimizdan oshiqcha xafa bo'ldi, hatto tahdidga o'tdi: "Aslida sohadagi salbiy holatlar shu joydan boshlangan ekan". Afsuski, unga xizmat odobini tushuntirib bo'lmadi, gap bozordagi oldi-sotdiga o'xshab qoldi. Shunda xayoldan har bir odamning shaxsiy madaniyati, aniqrog'i qilib aytganda, tarbiyasi haqidagi mulohazalar o'tdi.

## Shu bahona "inson manzaralari"ga bir qur nazar solaylik.

1. Ba'zi g'ayratli, tashabbuskor kishilar imkoniyatlarini faqat o'z foydalari hisobiga ishlatadi. Garchi ular boshqalarning, jamoa a'zolarining ko'zicha yelib-yugurib, o'zlarini o'tga-cho'qqa urib yursalar-da, bu harakatlarining zamirida shaxsiy manfaat yashiringan bo'ladi. Mabodo bu manfaat chegarasi biroz kemtilsa,

ular dunyoni boshlariga ko'tarib, shunday ayyuhannos soladilarki, kechagi tarbiyali odamdan asar ham qolmaydi.

2. Shunday oqko'ngil, xokisor odamlar borki, ularni ko'rib, o'pkasini yelkalab olgan har qanday kishi ham hovuridan tushib qoladi, ammo ularning fojiasi shundaki, me'yorni bilmaydi, hammaga – bo'riga ham, qo'yga ham bir xil muomala qiladi. Ko'pincha ularda did, farosat oqsaydi.

3. "Bir kam dunyo" deganlaridek, har jihatdan to'liq odamlar bor: shaxsiy madaniyati ham joyida, mulozamatni ham o'rlnatadi, oqibatlari ham ko'ngildagidek, biroq o'lgudek xasis bo'ladi.

4. Atrofimizda kimlar yashamaydi: hayotning achchiq-chuchugini yetarlicha totgan, issiq-sovuqni o'tkazgan, yosh ham bir joyga borib qolgan, ammo hali o'zlarini topa olmagan zotlar ham bisyor. Fikrlari har kuni o'n marta o'zgaradi, birovni ertalab yaxshi ko'rsalar, tushdan keyin undan cheksiz nafratlanadi-ular taassurotlardan tug'ilgan axborotlarni qayta "ishlash" va zarur xulosalar chiqarib, uni amaliyotda qo'llash malakasi shakllanmagan, bir umr "jangchi" bo'lib yashagan.

5. Dovuldek suron solib yuradigan kishilar bor, har joyda hozir-u nozir. Tashvishingga ko'makdosh, shodligingga sherik. Afsuski, ular hech kimning qo'lidan kelmeydigan yaxshiliklar qilish bilan birga senga nisbatan eng

dahshatli yovuzlikkacha borishlari ham mumkin...

(*Ko'zlarimiz yorug'likka muhtoj, dunyoda esa komil insonlar bisyor. Baribir nazarga "qora nuqta" birdan tashlanadi. Hayotimiz naqshi – yaxshilar ko'paysin. Bu "manzara"larda qay darajadadir nuqs bor, umumiy nomi esa "tarbiyasizlik"*).

Gapning nafsilamri esa bunday ko'rinishlarni sanab, hatto tasniflab bo'larmikin? Ta'bir joiz bo'lsa, qancha odam bo'lsa, shuncha "manzara" mavjuddir. Inson miyasida aks etadigan taassurotlarning son-sanog'i yo'q, ko'chaga chiqasan, bir sinoatga duch kelasan, uyga kirasan, yana bir sinoat... Ammo bu ko'rinishlarning umumiy jihatlari ham bor. Xususan, bolalikdagi tarbiya asoratlari bir umr saqlanib qolar ekan. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naqlida yuz foiz haqiqat bor. Zero, bolalikda tasavvurlar xuddi toza qog'ozdek oppoq bo'ladi, undagi soch tolasidek ingichka qora chiziq ham o'chmay qoladi.

Ish yuzasidan yana bir voqeaga guvoh bo'ldik, uning sharhi qanchalik alamli bo'lmasin, so'zlovchi o'zini nechog'li oqlamasin, gap yana "Janob Tarbiya"ga borib taqalardi. Ko'rinmas bu qudrat ko'p narsalarga qodirligini takror eslatib turardi.

... **Bu maktubni beparvo o'qib bo'lmasdi.** Unda hayotga katta umidlar bilan qadam qo'ygan, birinchi ushlagani cho'g' bo'lib

chiqib, qo'lini kuydirgan va shu bilan butun orzulari barbod bo'lgan ayol qalbining iztiroblari juda ta'sirchan ifodalangan edi: **"Men baxt do'konida navbatga turganlarning oldingi qatorida edim. Hammani sevardim, odamlarga yomonlikni ravo ko'rmadim va shuning evaziga niyatimga yetaman, deb o'ylardim. Afsus ..."** Albatta, u atrofda qilarni ayblar, o'zini haq deb hisoblar, shu orqali tiriklikka nafratini yashirmasdi. Aslida ham shundaymi? Axir hech narsa behuda sodir bo'lmaydi-ku, "Behikmat zirapcha sanchilmas tovonga". Nahotki, biz o'zimiz sezmagani holda yovvoyi o'rmonda yashaymiz? Holbuki, atrofimizda baxtdan masrur, chinakamiga hayotning ardog'ida umrguzaronlik qilayotgan son-sanoqsiz odamlar bor-ku. Shubhasiz, ularga ham yaxshi kunlar sovg'a qilinmagan, balki bu vaqtichog'likka toshni kemirib, suvni simirib yetishganlarini ko'pchilik biladi.

Ana shunday mulohazalar bilan aslida gap nimadaligini chuqurroq o'rganishga kirishdik. Bu yumushda mahalla oqsoqollari, jabrdiydaning yaqinlari, ruhshunos-u pedagoglar ko'maklashishdi. Ularning yordami bilan bu hayot "laboratoriyasi"ning ichiga teranroq kirib borishga urindik.

... U barbod bo'lgan turmushi haqidagi alamli hikoyasini yakunladi. Albatta, ko'plab baxti qaro bo'lgan juvonlar kabi u ham omadsizligida o'zgalarni, ko'proq sobiq turmush o'rtog'ini yomonlar, o'zini qo'y og'zidan cho'p olmagan qilib ko'rsatardi. Holbuki, xalqda "Qars ikki qo'ldan" degan gap bor. Har kim hayotdan izlaganini topadi. Agar kimgadir do'st kerak bo'lsa, yaqin kishisidan nuqul shu fazilatlarini izlaydi, uchratsa, uni qabul qiladi, murodiga yetadi. Topolmasa, undan uzoqlashadi, voz kechadi. Mabodo ikki kishi o'rtasidagi munosabat er-xotinlik rishtalari bilan bog'langanda ham mohiyat shu: ko'nglidagiga duch kelgan bo'lsa, olam guliston. Aksi bo'lganda esa... bizning millatimizda murosa yo'li tanlanadi. Shubhasiz, jami er-xotinli juftliklar omadli bo'lavermagan, xuddi shunday, jami er-xotinlar oilada o'zlarini baxtli hisoblamaydilar. Biroq yashaydilar: ota-ona hurmati, qarindosh-urug' sha'ni,



bolalarning baxti uchun. Shu aqidadan kelib chiqib, "Baxtga erisha olmasligimizning sabablari aksariyat o'zimizda emasmikan?" degan nuqtayi nazar bilan masalaga yondashdik.

Ayolning mahzun hikoyasi sirasida bir e'tirofi qulog'imizda qoldi: "Qaynotam nuqul "Tarbiyasiz ekansan" deb koyirdilar". Keyinroq ma'lum bo'ladiki, u voyaga yetgan muhit ko'ngildagidek bo'lmagan.

Endi shunday oilani tasavvur qiling. Ota ichkilikka ruju qo'yg'an, ro'zg'orning butun yuki onaning gardanida. To'rt nafar norasida go'dagini voyaga yetkazish uchun suv kelsa simirib, tosh kelsa kemirib, tirikchiligini ta'minlayapti. Azbaroyi qozon qaynatish g'amida bozorga chiqib ketdi. Erning parvoyi palak, shishaning tor og'zidan ichkariga kirib olgancha, shu ummonga g'arq bo'lib ketgan. Bu ahvoldan xotin darg'azab, bozordan charchab, ezilib keladi-da, butun zahrini pajmurda erkakka sochadi. Oilada har kuni janjal, to'polon, ur-yiqit. Bolalar ana shunday muhitda o'sdi, ulg'aydi.

Sho'rpehona kelin shu oilaning to'ng'ichi edi. Uning baxtsizligida o'zining, aniqrog'i, oilaviy tarbiyaning ta'siri yo'qmi? Tarbiya jarayonining zanjirsimon ta'sirini qarang: uning noto'g'ri asosga qurilgani tarbiyasiz ota-onaninggina emas, ularning zurriyotlari hayotini ham barbod qilyapti.

**VOQEA:** ota-onasining boshdan suvi loyqalangan, dastlabki g'idi-bidilar yillar o'tgan, oila muammolari kattargan sari chuqurlashib, oshkora janjalga aylangandi. Goh-gohida bo'lib turadigan bu yeng ichidagi muhorabalar keyinchalik doimiy mashg'ulot tusini oldi. Ko'z ochgandan ishga ketguncha, ishdan qaytib, uyquga yotguncha tortishuv, gap talashish va oxirida janjal.

**TAASSUROT:** muttasil shovqin-suronning ichida o'sayotgan bolalar bu holga butunlay ko'nikishdi, ularning tasavvurida oila, er-xotinlik, turmush shunday bo'lishi kerakdek edi. Endi ba'zida ota-onalari jim qolgan pallada bolalar o'zaro urush chiqaradigan bo'lishdi. Buning uchun esa bahona yetarli. Qolaversa, bolaning har bir harakati ukasi yoki aka-opasida e'tiroz qo'zg'aydi,

agar ular kelishish, murosahida tarbiyalanmagan, bir-birini qadrlash, kechirish tarzida ulg'aymagan bo'lsa, har lahzada to'polon ko'tarishga turtki topiladi. Shunday qilib, tegirmonda tug'ilgan sichqon momaqaldiroqdan qo'rqmaydi, deganlaridek, oilaning farzandlari quloqsiz, gap uqmas, janjalkash bo'lib o'sdi.

**QO'SOQOLNING E'TIROFI:** "Farzand uchun ona mehri, ota nasihati havodek zarur. Mehr berilsa, mehri bo'ladi, nasihat eshitsu, odobni o'rganadi. Mehr ko'rgan bola dilozor bo'lmaydi. Otaning har bir pand-nasihati boshqalarga hurmat ruhini singdiradi, ota nasihatini eshitmay o'sgan farzand boshqalar bilan hisoblashmaydigan, hech kimdan fikr so'ramaydigan, hamma narsada o'zi qaror qabul qiladigan o'zboshimcha va xudbin bo'lib yetishadi".

**SOBIQ QAYNOTA HIKOYASIDAN:** "Kelin qo'l-oyog'i chaqqon, muomalasi shirin, xushchaqchaq qiz ekan. Bu fazilatlar bilan hammamizning mehrimizni tezda qozondi. Aslida keyinroq ma'lum bo'lib qoldiki, bu qiliqlari ko'cha-ko'yda ko'rganlari asosida shakllangan yuzaki sifatlar ekan. Oila tarbiyasining sayozligi, ayniqsa, ota o'g'itini eshitmagani tezda o'z kasrini ko'rsata boshladi. Unda umuman o'zidan yoshi katta odam oldida odob saqlash, uning hurmatini joyiga qo'yish, pand-nasihatlarini tinglash malakasi shakllanmagan ekan. Mening oldimda ham o'zini erkin tutadi, boshqalardek muomala qiladi. Hatto tortishib, ba'zan ko'zimga tik qaragancha "Bekor aytibsiz" singari nomaqbul gaplarni ham aytaveradi..."

**PEDAGOGNING MULOHAZASI:** "Bolani kamolga yetkazishning sinalgan usullaridan biri - u esini tanigandan boshlab foydali mashg'ulotga jalb qilish. Masalan, uy-ro'zg'or yumushlariga. Qiz bolalar esa uy tutish, sarishta-saranjomlikka go'dakligidanoq o'rgatib borilmog'i lozim".

**SOBIQ QAYNONA:** "U uy-ro'zg'or ishlariga ham epsiz edi. Narsalari ivirsib yotar, qozon-tovoqdan yiroq, bichish-tikishda uquvsiz edi. Negaki onasi bozordan beri kelmagan,

qizining ayni zehni ochilayotgan pallada ayol kishiga asqatishi kerak bo'lgan mashg'ulotlardan saboq bermagandi. Barqaror muhitda ulg'aymagani uchun har narsada me'yorni saqlash, tartibli bo'lish singari odatlarga ham ko'nikmagan, demak, issiq-sovuqqa chidash, og'ir-yengilga ko'nikishni bilmas, xullas, turmushga tayyor emasdi. Tartibsizligi tufayli xafa bo'lsa, juda iztirob chekib, xursand bo'lganda yer-ko'kka sig'may quvonardi. Birovdan ranjisa ham qattiq nafratlanar, yoqtirib qolsa, joniga tegib ketardi - me'yorni bilmasdi".

**VOQEA:** buning isbotiga bir misol aytib berishdi: kuyov safarga ketish oldidan yosh rafiqasiga erkalanib, "Yaxshi tilaklar bildirmaysizmi?" degan. Bunday muomalaga o'rganmagan kelin esa "O'limga ketayotganingiz yo'q-ku, qaytib kelasiz-da" tarzida sovuq javob qilgan. Bu gapning erkakka qanday ta'sir etishini chamalab ko'ring.

Mulohazalarni tinglab, xat muallifiga murojaat etdik. Taassufki, u bu gaplarni eshitishni xohlamas, hammasida baribir boshqalarni aybdor deb bilardi. U parvarish ko'rmay o'sgan tog' olchasiga o'xshardi: yovvoyi tabiat qo'ynida daraxt betizgin tarvaqaylab rivojlangan va o'zining borlig'ini shu tartibsizlikda, deb biladi. Juvon ham "Men shundayman va shu holimcha qolaman. Kerak bo'lsa, boshqalar menga moslashsin" degandek kibr bilan o'tirar, odaticha, hammadan qusur topib, hamma narsadan norozi bo'lardi. Afsuski, hayotning shunday temir qonuniyatlari borki, u shohdan ham, gadodan ham o'ziga bo'ysunishni talab qiladi, ularga zid borish esa o'tkir arra tig'iga qarshi turishdek gap. Buni bizning suhbatdoshimiz tushunib yetmasdi, halhamon tushunib yetishni ham xohlamasdi. Albatta, har doim o'zini haq deb bilish ham tarbiyasizlikning bir ko'rinishi. Holbuki, donolarning "Hammani yaxshi bilgin-u, o'zingni yomon de, hammani dono bilgin-u, o'zingni somon de" qabilidagi nasihati bor. Bunday hikmatli gaplar biror bilim yurtida o'qitilmaydi, uning maktabi ham yo'q. Shundanmi, tarbiya hamma shug'ullanadigan umumiy ishga o'xshab tuyuladi. Binobarin, tarbiyaga hamma ega-yu, aslida egasi yo'q. Uning uchun hamma mas'ul-u, aslida hech kim mas'ul emas. Hatto tarbiya bilan maxsus shug'ullanish shart emas, odam o'z-o'zidan tarbiyalanib qoladi, singari tushunchadagi odamlar ham uchraydi. Masalan, o'zbeklarda

"Bir bolaga yetti mahalla ota-ona" degan maqol bor, deyishadi ular.

Bu jihatdan tarbiya ishi tashkilotlardagi jamoatchilik topshirig'iga o'xshaydi: ishlanadi-yu, haq to'lanmaydi, demak, buning uchun hech kim javob bermaydi.

**MULOHAZA QILIB KO'RILSA,** bitta tarbiyasi komil bo'lmagan odam jamiyatga keltirayotgan zararning o'rnini

o'nta olim ham qoplay olmasligi mumkin. Nomaqbul oila sharoitida ulg'aygan, aksariyat munosabatlarda noqobilligi bilan baxtidan mosuvo bo'lgan, boz ustiga o'zining nohaqligini tushunib yetmagan "kelinchak" alamzadalik bilan hali qanchalab taqdirini ostin-ustun qilib tashlashi mumkin? (*Bunday misollarni atrofimizdan istagancha topa olamiz*). Global darajada olib qaraladigan bo'lsa, insoniyatga ko'plab tashvishlar olib kelgan bosqinchilar ham birinchi navbatda tarbiyasiz odamlar bo'lgan (*afsuski, ularning aksariyati ta'limda nuqsonsiz edi*).

Fikrimizni davom ettirib, hozirgi paytda jami insoniyatni tahlikaga solib turgan fojialarni ko'z oldimizga keltiraylik. Terrorizm deymizmi, giyohvandlikmi yoki fohishabozlikmi - bularning hammasida "rol o'ynayotgan" bandalar - u yoki bu darajada tarbiya ko'rmagan, g'ayriinsoniy muhitda tarbiyalangan va shakllangan kimsalar. Ularning qalbi insoniy tuyg'ulardan mahrum, mehrsiz, toshbag'ir yoki alamzada, g'ururi toptalgan zotlar. Hatto hozir yuzaga kelgan ekologik tanglik ham loqaydlik, tarbiyasizlik mahsulidir, ya'ni tabiat oldidagi burch unutilgan, me'yorga amal qilinmagan.

**Balki "Nur bor ekan, soya bor" deganlaridek,** salbiy holatlar bo'lishi tabiiydir, yaxshilik bor joyda yomonlik ham bo'lar, ya'ni tarbiyasizlik ham ijtimoiy me'yor deguvchilar ham topilar. "Oyda ham dog' bor" deydi kamsuqum odamlar. Afsuski, ayni paytda yomonliklar haqida ko'p gapirilmoqda, vaziyat tashvishli ekani zamon mutafakkirlari tomonidan ta'kidlanmoqda, ya'ni soya (*zulmat*) nurni to'sib qo'yimoqda. Bularning hammasi bir haqiqatni tasdiqlaydi: tarbiya joyida emas. Ehtimol, tarbiyaning mazmuni o'zgargandir, endi uni boshqacharoq qo'yish kerakdir yoki usullari eskirgandir. Balki tug'ilajak farzand tarbiyasini u dunyoga kelgandan so'ng boshlash ham kechikishdir, balki bu yumushni bo'lajak ona vujudida gumon paydo bo'lishi bilan yo'lga qo'yish kerakdir. Bugungi zamonaviy meditsina homilador ona hayotida ro'y berajak barcha voqealar chaqaloq tabiatida aks etishini aniq-tiniq isbotlab qo'yibdi-ku.

Texnika yuksak darajada taraqqiy topgan hozirgi kunlarda ko'p narsalarga ko'zqarashlar ham, munosabatlarga ham o'zgarib ketdi. Odamzod tashvishlarimga dastyor bo'ladi, og'irimni yengil qiladi, degan ezgu maqsad bilan yaratgan ixtirolari oxir-oqibat o'ziga yov bo'lib qolyapti. Hissiz, tuyg'usiz, sovuq temirni boshqarish qiyin bo'lib bormoqda. Bir kun bu matoh o'z xojasiga bo'ysunmay ham qo'yishi ehtimoldan yiroq emas. Ana shunday qaltis sharoitda ham buyuk aql va iste'dod egasi - Inson bir yo'lini topadi.


Odamzod ilm-u urfon (*ta'lim*)da eng baland nuqtaga - apogeyga yetdi. Dunyoning bundan keyingi taqdirini esa baribir **TARBIYA, MA'NAVİYAT** hal qiladi.

**Hakim SATTORIY,**  
yozuvchi



Chegara qo'shinlarida

# Haqiqiy sinov maydoni



## CHEGARACHI

Osmon manglayida to'lin oy titrab,  
Oltin tuproqqa nur – harorat to'kar.  
Chegarachi yigit tun bo'yi ishlab,  
El boshidan huzur-halovat to'kar.

Beshik g'ichirlaydi, uyqusin uzib,  
Go'dagiga ko'ksin tutadi ona.  
Oy bulutlar aro o'tadi suzib,  
Chegarachi hushyor tortadi yana.

Bo'y qizlar jilmayib qo'yadi shirin,  
Balki shahzodalar kirgan tushiga.  
Haybatidan qo'rqib chegarachining  
Hatto qushlar uchar qanot uchida.

Azob berar urush ko'rgan boboning,  
Ruhida oskolka qoldirgan izlar.  
Oqib o'tgan loyqa suvlarning dardini  
Ichga yutib yotar beva yalpizlar.

Oy ham tog' qo'yniga egilar keyin  
Qoyatoshlar qalqib beradi jarang.  
To'yib orom olar chegarachining  
Yo'g'on yelkasiga suyanib Vatan.

Oy Yer atrofida aylanaverar,  
Sen el atrofida metin qo'rg'onsan.  
Ertaga saflashib yoningga kelar,  
Beshiklarda yotgan beklar uyg'onsa.

Go'zal OXUNOVA



Vatanimiz sarhadlarini ishonchli himoya qilish va qo'riqlashda xizmat hayvonlari chegarachilarning eng yaqin ko'makdoshi sanaladi. Ular chegara xizmatini o'tash bilan birga milliy hamda xalqaro ko'rik-tanlov va musobaqalarda ham ishtirok etib, yuqori natijalarni qo'lga kiritib kelmoqda.

Xususan, Rossiya Federatsiyasining Vyazma shahrida MDHga a'zo davlatlar chegara idoralari kinologlari o'rtasida bo'lib o'tgan musobaqada mamlakatimiz chegarachilari o'z xizmat itlari bilan muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

Belarus, Qozg'iston, Tojikiston va O'zbekiston Respublikalari hamda Rossiya Federatsiyasi kinologlari qatnashgan ushbu musobaqaning birinchi kunida ishtirokchilar xizmat hayvonlarini umumiy o'rgatish jarayonlari va to'siqlar yo'lagida harakatlanish bo'yicha o'z mahoratlarini amalda namoyon etgan bo'lsalar, ikkinchi kuni portlovchi moddalar va giyohvandlik vositalarini qidirish, aniqlash hamda izlab topish bo'yicha ko'nikmalarini sinovdan o'tkazdi.

Qizg'in va murosasiz bahslar yakuniga ko'ra, Belarus Respublikasi vakillari uchinchi, o'zbekistonlik chegarachi-kinologlar 2-o'ringa munosib deb topildi. Faxrli birinchi o'rin mezbon jamoa vakillariga nasib etdi.

Musobaqaning tantanali taqdirlash marosimida g'olib va sovrindorlar MDHga a'zo davlatlar Chegara qo'shinlari qo'mondonlari kengashining kubok, medal, diplom, sertifikat va tashakkurnomalari bilan taqdirlandi.

Bellashuvlar davomida ishtirokchilar uchun Gagarin va Vyazma shaharlaridagi diqqatga sazovor joylarga ekskursiya tashkil etildi.

Sodiq do'stlari ko'magida faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritib, yurtimizga qaytgan kinologlar Jizzax viloyatida joylashgan DXX Chegara qo'shinlariga qarashli Kinologiya va kavaleriya ta'minoti markazida karnay-surnay sadolari ostida tantanali tarzda kutib olindi. Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbir davomida g'oliblar DXX raisining o'rinbosari – Chegara qo'shinlari qo'mondonining faxriy yorlig'i hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. So'z olganlar harbiy xizmatchilarni erishgan natijalari bilan qutlab, ularning Vatan

sarhadlarini ta'minlash yo'lidagi ulkan hissalarini alohida e'tirof etdi.

– Ushbu musobaqa ishtirokchilar uchun haqiqiy sinov maydoniga aylandi, desam, yanglishmagan bo'laman. Chunki barchamizdan juda katta matonat va iroda talab etildi. Sog'lom raqobat ruhida bellashgan holda hamma qiyinchiliklarni yengib o'tib, yuqori natijaga erishganimizdan xursandmiz. Fursatdan foydalanib, musobaqaning sifatli va haqqoniy o'tishida munosib hissa qo'shgan barcha tashkilotchilarga o'z minnatdorligimizni bildirib qolamiz, – deydi kichik serjant Zavqiddin Amirov.

Albatta, bu kabi musobaqalarning muntazam ravishda o'tkazib borilishi chegara idoralari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va do'stlik ko'priklarini mustahkamlab, kinolog mutaxassislarning professionallik darajasini yanada oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz.

Mayor Farida BOBOJONOVA  
DXX Chegara qo'shinlari

## Ogohlik



# KIBERFRIBGARLAR: ULARDAN QANDAY HIMOYALANAMIZ?

Bugun axborot texnologiyalarining jadal rivojlanib borayotgani insonlar uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Misol uchun, uydan chiqmagan holda onlayn platformalar orqali internet do'konlaridan turli narsalarga buyurtma berish, messengerlar orqali dunyoning istalgan nuqtasidan turib, istalgan odam bilan muloqot qilish mumkin. Hatto axborot texnologiyalari ta'lim va ko'ngilochar vosita sifatida hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi.

Biroq ushbu imkoniyatlardan kim qanday maqsadda foydalanayotgani masalaning muhim jihati hisoblanadi. Xususan, ijtimoiy tarmoqlarning keskin rivojlanib borayotgani shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligiga doir jiddiy xavf-xatarlarning urchishiga sabab bo'lmoqda. Tarmoqlar orqali shaxsiy ma'lumotlarning tarqatilishi, fuqarolarning bank kartalaridan fribgarlik orqali pul o'g'irlash, tovlamachilik va boshqa jinoyatlarning ortishi nafaqat fuqarolarning, balki davlat organlari uchun ham muhim masalaga aylandi.

Kiberxavfsizlik markazining ma'lumotiga ko'ra, mamlakatimizda so'nggi **5 yilda** kiberjinoyatlar **68 baravarga**, birgina o'tgan yilda 2023-yildagiga nisbatan **9,1 baravar** oshgan. Ushbu davrda kibermakondagi huquqbuzarliklar yuzasidan jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar soni **34 baravar** ko'paygan. Mazkur jinoyatlar oqibatida fuqarolarning **1 trillion 909 milliard** so'mdan ortiq mablag'i talon-toraj qilindi.

Kiberjinoyatlar asosan zararli havolalar va dasturlar yuborish orqali bank kartasi yoki mobil qurilma boshqaruvini qo'lga kiritish, turli aldovlar bilan bank kartasi hamda mobil ilovalardagi akkauntlar boshqaruvini tasdiqlovchi SMS kodni qo'lga kiritish, shaxs nomiga onlayn kredit rasmiylashtirish, onlayn savdo platformalaridagi fribgarliklar va turli usuldagi fribgarlik sxemalari orqali fuqarolarning pul mablag'larini jalb qilish tarzida sodir etilmoqda.

Shuningdek, fribgarlar internetdagi turli ijtimoiy tarmoqlar yoki elektron pochta orqali soxta veb-saytlar, bank yoki to'lov tashkilotlarining nomidan ochilgan soxta sahifalarni tarqatib, ular orqali

turli (reklama qilish, sovrinli aksiyalar, lotereya yutuqlari, bir martalik nafaqa to'lovlari, uzoq qarindoshdan qolgan meros, sotilayotgan buyumni xarid qilish yoki arzon narxda sotish, internet orqali oson pul topish va h.k. kabi) takliflar berish va fuqarolarning ma'lumotlarini kiritishni so'rash orqali fuqarolarning ishonchiga kirib, ularning ma'lumotlarini qo'lga kiritmoqda.

Misol uchun, 2024-yilning fevral oyida yigit o'ziga avvaldan tanish bo'lgan 21 yoshli qiz bilan ishqiy munosabatda bo'lgan. Ular 2023-yili to'yda bir-birini yoqtirib qolib, gaplashishni boshlagan. Biroq oradan vaqt o'tib, qiz yigit bilan orani ochiq qilish niyatida ekanini bildirgan. Shundan so'ng yigit qizning behayo rasmlarini tarqatish bilan qo'rqitib, undan pul talab qilgan. Qiz esa yigitga iyul oyining boshida **2 mln so'm**, keyin **4 mln so'm va 2 marta 1 mln so'mdan** pul bergan.

Sud qaroriga ko'ra, yigit JKning 165-moddasi 2-qismi "a" bandi, 141-3-moddasi 1-qismi bilan jinoyat sodir etganlikda aybdor deb topilib, unga nisbatan **JKning 59-61-moddalari** tartibida tayinlangan jazolarni qisman qo'shish yo'li bilan 5 yil-3 oy muddatga ozodlikdan mahrum qilingan.

Shu yilning o'zida sirdaryolik Sh.Q. boshqa bir kishining xabarisiz, uning shaxsiga doir biometrik ma'lumotlaridan foydalanish holda **150 mln** so'm miqdorida kredit olib, ushbu pul mablag'larini o'z ehtiyoji yo'lida sarflab yuborgan. Sud hukmi bilan Sh.Q.ga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan.

Shuningdek, yaqinda Toshkent shahrining Mirzo Ulug'bek tumanida joylashgan uylardan birini ijaraga olib, u yerda Call-markaz faoliyatini yo'lga

qo'ygan jinoiy guruh faoliyati fosh etildi. Guruh fuqarolarga soxta qo'ng'iroqlar orqali fribgarlik yo'li bilan ularni aldab, mol-mulkklarini talon-toraj qilish bilan shug'ullanib kelgan. Ushbu jinoiy guruhda ikki nafar tashkilotchi hamda **20 ta operator** faoliyat yuritgan. Fribgarlardan **15 mingdan ortiq** fuqaroning abonent raqami, shaxsiga doir ma'lumotlari, giyohvandlik moddalari, **35 dona** uyali aloqa vositasi, **10 dan ortiq** plastik karta ashyoviy dalil sifatida rasmiylashtirib olinib, jinoyat ishi qo'zg'atilgan. Yuqoridagi kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin. Shubhasiz, bunday holatlar shaxsiy ma'lumotlarning noqonuniy tarqatilishi, shantaj, tovlamachilik kabi jinoyatlarning ijtimoiy tarmoqlar orqali osongina amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, fuqarolarning xavfsizligiga va shaxsiy ma'lumotlariga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Shu o'rinda savol tug'iladi: **Kiberjinoyatlarning oldini olish uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda?**

– Bugungi kunda kiberjinoyatlarning umumiy jinoyatchilikdagi ulushi sezilarli ravishda ortishi ularning oldini olish zaruratini yanada dolzarblashtirmoqda, – deydi "Kiberxavfsizlik markazi" DUK mutaxassisi Dilshodbek To'rayev. – Bugungi kunda markaz mutaxassislari tomonidan zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashish va zararli dasturlarni aniqlash maqsadida faqat android qurilmalari uchun oflayn rejimda ham ishlaydigan "**Check permission**" nomli maxsus mobil ilova ishlab chiqildi. Ushbu ilova har **15 daqiqada** o'rnatilgan ilovalarni avtomatik tarzda tekshiradi va xavfli ilovalar haqida foydalanuvchini bildirishnoma (notification) orqali ogohlantiradi. Shuningdek, markaz tomonidan Telegram messengerida tarqalayotgan viruslarni aniqlash va tahlil qilish maqsadida maxsus "**CyberQalqon**" Telegram bot yaratilgan. Foydalanuvchilar ushbu bot orqali shaxsiy akkauntiga kelib tushgan fayllarning xavflilik darajasini osongina bilib olishlari mumkin. Foydalanuvchilardan shubhali havolalarni bosishdan yoki ilovani o'rnatishdan oldin ularni yuqoridagi usullar orqali tekshirib olishlarini tavsiya qilamiz.

Qayd etish kerakki, ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlash uchun nafaqat qonunchilik choralari, balki aholining ham

ehtiyotkorligi va hushyorligi muhimdir. Afsuski, fuqarolarning ko'pchiligi yuqoridagi kabi holatlarga duch kelganda, o'zbekchilikka borib, huquq-tartibot xodimlariga xabar bermasdan, jimgina "qozonni yopib qo'ya qoladi". Hatto Telegram messengeriga kelgan fayllarni ochmang, deyilganiga qaramasdan, telefonga kelgan faylni ochib, o'rnatadi...

Bu esa yuqoridagi kabi jinoyatlarni sodir etayotgan fribgarlar uchun ayni muddao bo'lmoqda va ularning faoliyati gullab-yashnamoqda. Xo'sh, internet fribgarlaridan qanday saqlanish mumkin?

Mutaxassislarning fikricha, kiberjinoyatchilar qurboniga aylanmaslik uchun messengerlardan kelgan xabarlarini puxta tekshiruvdan o'tkazish lozim. Ijtimoiy tarmoqlar va messengerlarda doim ogoh bo'lish, ilovalarni o'z vaqtida yangilab turish, mustahkam va ishonchli parollardan foydalanish, parolni hech kimga ma'lum qilmaslik, antivirus dasturlaridan foydalanish, shubhali xabarlar, postlar va havolalarni boshqalar bilan bo'lishmaslik kerak.

Elektron to'lov vositalari orqali sodir etiladigan o'g'irlik va fribgarlik jinoyatlaridan himoyalani uchun esa parol va kodlarni hech kimga ma'lum qilmaslik, bankomatlarda bank kartasidan foydalangan holda operatsiyalarni amalga oshirishda shubhali shaxslar yo'qligiga e'tibor berish shaxsiy ma'lumotlar tarqalmasligining muhim jihati.

Shu bilan birga davlat tashkilotlarida ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, kiberxavfsizlik savodxonligini doimiy oshirib borish yuqoridagi kabi jinoyatlarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, qonunchilikni takomillashtirish, internetda shaxsiy ma'lumotlardan foydalanishni tartibga soluvchi normalarni yangi texnologiyalarga moslashtirish va jinoyatlar uchun jazolarni yanada qat'iyashtirish, fuqarolarni kiberxavfsizlik bo'yicha o'qitish, ijtimoiy tarmoqlar va messengerlarda noqonuniy faoliyatni aniqlash uchun doimiy monitoring tizimini kuchaytirish hamda tezkor javob berish mexanizmlarini ishlab chiqish orqali fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash mumkin bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatda ishonch va barqarorlikni mustahkamlaydi.

**Leytenant Mansurbek JABBOROV,**  
"Vatanparvar"

“Jadidlarning ma’naviy qahramonligi” tanloviga



# UYG‘ONISH SARI ELTGAN NUR

Mustaqil O‘zbekiston bugun o‘z taraqqiyotining yangi, shiddatli bosqichiga dadil qadam qo‘ymoqda. Bu yuksalishning zamirida millatning ruhiy uyg‘onishi, ma’rifat va ozodlik uchun kurashgan, o‘zining borlig‘ini Vatan kelajagiga baxsh etgan buyuk ajdodlarimiz – jadidlarning beqiyos ma’naviy merosi yotadi. Ular nafaqat o‘z davrining ilg‘or ziyolilari, balki chinakam ma’naviy qahramonlardir.

“Ma’naviy qahramonlik” tushunchasi jadidlar hayoti va faoliyati kontekstida g‘oyat teran ma’no kasb etadi. Bu, birinchi navbatda, mustamlakachilik zulmi, qoloqlik va jaholat botqog‘i ostida qolgan millatning ko‘zini ochish, uni ilm-ma’rifat nuriga, taraqqiyot yo‘liga yo‘naltirish yo‘lidagi mislsiz ruhiy qudrat va qat’iy kurashdir. Jadidlarning ilmga tashnligi, ma’rifatni keng yoyishga bo‘lgan so‘nmas ishtiyoqi, milliy o‘zlikni anglashga, tarix va madaniyatni qayta kashf etishga chaqiriqlari, mustaqillik va ozodlik g‘oyasi uchun kurashdagi cheksiz matonati, o‘z yuksak ideallari yo‘lida ko‘rsatgan fidoyilik va jonbozlik bularning barchasi ularning ma’naviy qahramonligining asosiy, ajralmas xislatidir. Ular moddiy emas, balki ma’naviy qadriyatlar – millatning erki, ongi va kelajagi uchun kurashdi.

Jadidlarning bu ma’naviy jasorati turli sohalarda yorqin namoyon bo‘ldi.

**Birinchi**dan, ularning adabiy-publitsistik faoliyati xalqning dardini, orzu-umidlarini ifodalagan, milliy ruhni uyg‘otgan qudratli ma’naviy qurolga aylandi. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani milliy tarixga, o‘tmishga muhabbat uyg‘otib, o‘zlikni anglashga chorlasa, Cho‘lponning jo‘shqin she‘rlari qalbda ozodlikka bo‘lgan intilishni jo‘sh urdirdi. Fitrat, Hamza kabi adiblarning asarlari jamiyatdagi illatlarni shafqatsiz fosh etib, xalqni uyg‘onishga, faoliyatga chaqirdi. “Turkiston viloyatining gazetasi”, “Taraqqiy”, “Oyina”, “El bayrog‘i” kabi gazeta va jumallar orqali jadidlar o‘z ilg‘or g‘oyalarni keng omma ongiga singdirishga, ularni safarbar etishga muvaffaq bo‘ldi. So‘z orqali jaholatga qarshi kurash – bu haqiqiy ma’naviy qahramonlik edi.

**Ikkinchi**dan, jadidlar ta’lim-tarbiya sohasida inqilobiy o‘zgarishlarni amalga oshirdi. Ular eski usuldagi maktablarning qoloqligini, zamon talablariga javob bermasligini chuqur anglab, zamonaviy, dunyoviy bilimlar beradigan “Usuli jadid” maktablarini tashkil etdi. Bu maskanlarda o‘qitish uslubi yangilandi, tabiiy fanlar, geografiya, tarix kabi zaruriy bilimlar o‘qitila boshlandi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy kabi fidoyilarning bu yo‘ldagi tinimsiz sa’y-harakatlari, o‘z mablag‘lari hisobidan maktablar ochishi, darsliklar yozishi – bularning barchasi ma’rifat uchun ko‘rsatilgan yuksak ma’naviy jasorat namunasi.

**Uchinchi**dan, jadidlar milliy madaniyat, xususan, teatr san’atini rivojlantirishga katta e’tibor qaratdi. Teatr sahifalarida millatning dardi, kelajak orzulari aks ettirildi, tomoshabinlar ongiga ilg‘or g‘oyalar singdirildi. Teatr xalqni birlashtirishning kuchli vositasi sifatida qaraldi. “Padarkush” kabi asarlar orqali xalqni jaholat va beparvolikning achchiq oqibatlaridan ogohlantirdi.

**To‘rtinchi**dan, jadidlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari ularning ma’naviy qahramonligining yana bir muhim qirrasidir. Ular Turkistonning mustamlakachilik kishanlaridan ozod bo‘lishi, zamonaviy, taraqqiy etgan davlatlar qatoriga kirishi uchun kurashdi. Ularning milliy davlatchilik, konstitutsiya, huquqiy davlat, erkinlik va tenglik haqidagi g‘oyalari o‘z davri uchun mislsiz darajada ilg‘or va jasoratli edi. Mustamlakachilik tizimiga qarshi ochiq fikr bildirishning o‘zi katta xavf tug‘dirgan bir paytda bu g‘oyalarni dadil ilgari surish – bu haqiqiy ma’naviy qahramonlik cho‘qqisi edi.

Jadidlarning ma’naviy qahramonligini ularning buyuk siymolari timsolida yanada yaqqolroq ko‘rish mumkin:

**Mahmudxo‘ja Behbudiy** – o‘zbek dramaturgiyasi va milliy teatrining asoschilaridan, publitsist, noshir va ma’rifatparvar. Uning “Padarkush” asari jaholat va beparvolikning mudhish oqibatlarini fosh etgan. Yangi usul maktablari ochishdagi jonbozligi, “Samarqand” gazetasidagi o‘tkir maqolalari orqali mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashgani uning ma’naviy qahramonligining yorqin namunasidir. “Biz, tiriklar nega o‘liklar kabi yuramiz?” degan chaqirig‘i butun millat uchun uyg‘onishga undov bo‘lgan. Bu yo‘lda ko‘rsatgan qat’iyatligi sabab qatag‘on qurboni bo‘ldi.

**Munavvarqori Abdurashidxonov** – jadidchilik harakatining Toshkentdagi yetakchilaridan biri, pedagog va noshir. “Nashriyot” shirkatini tuzib, o‘zbek tilida kitob va gazetalarning chop etilishiga asos soldi. Ilmga tashnligi va ma’rifatni yoyish yo‘lidagi fidoyiligi tahsinga loyiq. Uning tashabbusi bilan ochilgan “Usuli jadid” maktablari minglab yoshlarning ko‘zini ochdi, millatning intellektual salohiyatini yuksaltirdi. U ham o‘z e’tiqodi uchun qurbon bo‘ldi.



**Abdulla Avloniy** – shoir, dramaturg, noshir, pedagog va bolalar adabiyotining asoschilaridan biri. U bolalar uchun darsliklar (“*Birinchi muallim*”, “*Ikkinchi muallim*”) yozdi, teatr truppalari tashkil etdi. Uning “Turkiston qayg‘usi” she‘ri xalqning mustamlakachilik ostidagi azob-uqubatlarini, “Adabiyot yoxud milliy she‘rlar” to‘plami esa milliy o‘zlikni anglashga undadi. O‘zbek tiliga bo‘lgan cheksiz muhabbati va uni rivojlantirish yo‘lidagi mehnatlari uning ma’naviy jasoratidan dalolat. U ham o‘z g‘oyalari uchun ta’qibga uchradi.

**Cho‘lpon** – XX asr o‘zbek adabiyotining eng yirik va jo‘shqin namoyandasi, shoir va dramaturg. Uning milliy ruh bilan yo‘g‘rilgan, ozodlik nafasidan to‘yingan she‘rlari xalqning qalbida ozodlikka bo‘lgan intilishni kuchaytirdi. “Yurtimga”, “Go‘zal Turkiston” kabi asarlari o‘zbek adabiyotining durdonalariga aylandi. Uning ijodi mustamlakachilik siyosatiga qarshi norozilikning yorqin ifodasi edi. Cho‘lpon o‘z e’tiqodidan, Vatan muhabbatidan chekinmagani uchun fojiali ravishda qatl etildi.

**Fitrat** – adib, dramaturg, tilshunos, tarixchi, faylasuf va jamoat arbobi. Uning “Chig‘atoy”, “Qiyomat-qubosi” kabi asarlari o‘zbek xalqining boy tarixi, madaniyati va ma’naviyatini yoritib, milliy o‘zlikni anglashga kuchli turtki berdi. Ilmiy faoliyati, tilshunoslikka oid tadqiqotlari o‘zbek tilining rivojiga beqiyos hissa qo‘shdi. Fitratning o‘z g‘oyalari sobit turishi, hatto eng qiyin damlarda ham millat manfaati yo‘lida faoliyat yuritishi uning ma’naviy qahramonligining yana bir isbotidir. U ham qatag‘on qurboni bo‘ldi.

Jadidlar millatning erkinligi va kelajagi uchun shaxsiy hayotlarini, hatto jonlarini ham xavf ostiga qo‘ydilar, ammo o‘z e’tiqodlaridan aslo voz kechmadilar. Ularning bu matonati, fidoyiligi va sobitqadamligi bugungi avlod uchun beqiyos ibrat maktabidir. Jadidlarning ma’rifatparvarlik, milliy o‘zlikni anglash, ilm-fan va taraqqiyotga intilish, Vatanga muhabbat va sadoqat g‘oyalari bugungi O‘zbekiston uchun ham g‘oyat muhim va dolzarbdir. XXI asrda mamlakatimizning barqaror rivojlanishi, xalqaro maydonda munosib



o‘rin egallashi, kuchli fuqarolik jamiyati qurishi uchun jadidlar merosi bizga yo‘l ko‘rsatuvchi, ruh beruvchi mayoq bo‘lib xizmat qiladi.

Jadidlarning sermazmun hayoti va ibratli faoliyati yosh avlodni vatanparvarlik, milliy g‘urur va iftixor ruhida tarbiyalashning eng muhim vositasidir. Ularning ilmga bo‘lgan chanqoqligi, mehnatsevarligi, o‘z yurtiga cheksiz sadoqati bugungi yoshlarda ham ana shunday yuksak fazilatlarini shakllantiradi.

Jadidlar o‘z hayoti misolida yoshlarga bilim olish, o‘z ustida tinimsiz ishlash, jamiyatga foydali bo‘lish va Vatan ravnaqiga hissa qo‘shish zarurligini yaqqol ko‘rsatib berdi. Ular o‘zlikni anglashga, milliy qadriyatlarini e‘zozlashga o‘rgatdi.

**Harbiy xizmatchilar uchun ibrat**  
Jadidlarning qat’iyatligi, jasorati, fidoyiligi va o‘z g‘oyasiga, Vatanga cheksiz sadoqati bugungi O‘zbekiston Vatan himoyachilari uchun ham beqiyos ibrat maktabidir. Ular o‘z maqsadlariga erishish yo‘lida hech qanday qiyinchilikdan, tahdididan chekinmadi. Ularning bu fazilatlarini bugungi mard askar va ofitserlarimizga o‘z xizmat burchini sidqidildan bajarishda, Vatanimiz tinchligi va xavfsizligini ta’minlashda, yangi marralar sari intilishda kuch va ilhom beradi. Jadidlarning vatanparvarlik ruhi, millatga sadoqati har bir harbiy uchun ma’naviy qudrat manbaidir.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, jadidlarning ma’naviy qahramonligi – bu mustamlakachilik va jaholatga qarshi ko‘tarilgan ma’rifat bayrog‘i, millatning uyg‘onish sari qo‘ygan eng dadil qadami edi. Ularning ibratli hayoti, ilg‘or g‘oyalari, fidokorona kurashi bugungi kunda mustaqil O‘zbekistonning ravnaqi, yosh avlodning har tomonlama barkamol bo‘lib voyaga yetishi, Vatan himoyachilarining mardligi va fidoyiligi uchun mustahkam ma’naviy zamin yaratib bermoqda. Jadidlarning porloq xotirasi va beqiyos ma’naviy merosi xalqimiz qalbida abadiy yashaydi va kelgusi avlodlarga ham nurafshon yo‘l ko‘rsatadi.

**Farrux ABBOSOV,**  
pedagogika fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori

# Temur saltanatida

## MERGANLAR



Amir Temur saltanatidagi harbiy tuzilmada aniq nishonga otadigan maxsus jangchilar harbiy va siyosiy jihatdan muhim o'rin tutgan. O'rta asr harbiy san'atida kamondor, nayzador va aniq zarbali otuvchilarni zamonaviy snayperlarga qiyoslash mumkin.



Zamonaviy urushlarda merganlar strategik va psixologik ustunlik vositasi sifatida alohida o'rin tutadi. Ularning asosiy vazifasi uzoq masofadan aniq va samarali zarbalar berish, jang maydonida dushmanning yetakchi kuchlarini yo'q qilishdir. Bu jihatlar aslida tarixdan mavjud. Xususan, Amir Temur saltanatidagi harbiy tuzilmada aniq otuvchi jangchilarga yuqori darajada e'tibor qaratilgan. Garchi "snayper" atamasi o'sha davrda mavjud bo'lmasada, bu turdagi jangchilarning funksiyasi zamonaviy snayperlarga juda yaqin bo'lgan. Amir Temurning kuchli va qat'iy intizomli harbiy tuzilmasi o'nlik, yuzlik, minglik va o'n minglik bo'linmalarga ajratilib, har bir guruhda aniq otishga ixtisoslashgan jangchilar alohida o'rin tutgan. Kamondorlar ayniqsa ot ustida otish qobiliyati, harakatdagi nishonni urish bo'yicha mashq qilgan.

Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma" asarida Temurning kamon otish bo'yicha har bir jangchidan yuqori darajada mahorat talab qilganini yozadi. Bunday jangchilar dushman safida saralangan shaxslarni yo'q qilishda, kutilmagan hujumlarda muhim rol o'ynagan. Temuriy qo'shinlarda kamondorlar odatiy askardan farqli ravishda jismoniy chidamlilik, aniqlik va hushyorlik bo'yicha sinovlardan o'tgan. Ular jang maydonida qarama-qarshi safdagi qo'mondonlarni nishonga olish, kavsharliklardan (*yashirin joylardan*) otish, tungi hujumlar va oldindan tayyorlangan kamuflyajli zarbalar berish kabi funksiyalarni bajargan. Ayniqsa, Suriyadagi Halab, Bag'dod va Dehli yurishlari vaqtida Temur mazkur kuchlaridan noan'anaviy urush taktikasi sifatida foydalangan.

Merganlarga o'xshash jangchilar Temuriy harbiy mafkuraning ajralmas qismiga aylangan. Ular asosiy kuch sifatida dushman safida tashvish va ishonchsizlik uyg'otgan. Shuningdek, bir necha bor dushman qo'mondonlarini nishonga olgan. Bu esa g'anim ruhiyatiga zarba bergan. Uzoq masofadan nishonni urish imkoniyati bilan temuriy qo'shinlar ustunlikka erishgan.

Amir Temur saltanatidagi merganlarini zamonaviy snayperlar bilan solishtiramiz:

Ko'rsatkich	Temur jangchilari	Zamonaviy snayperlar
Qurol	Kamon, nayza, arqonli o'q	Snayper miltig'i
Masofa	100-300 metr	600-2000+ metr
Aniqlik	O'rganilgan, amaliyotda sinalgan	Optik asboblarni bilan yuqori
Niqoblanganlik	Giyohzor, tog', devor orti	Maxsus niqob, niqoblanish kostyumi
Maqsad	Elita jangchilar, ruhiy ta'sir	Qo'mondonlik, aloqa markazlari, texnika

Temuriy jangchilar bu zamonaviylikdan uzoq bo'lsa-da, konseptual jihatdan bir xil maqsadga xizmat qilgan - dushmanni tez, aniq, psixologik jihatdan yo'q qilish.

Amir Temur saltanatida aniq nishonga uruvchi, maxsus tayyorgarlikka ega jangchilar harbiy strategiyaning ajralmas qismi bo'lgan. Bugungi kunda "snayper" degan atama bilan tanilgan jangchilarnikiga o'xshash vazifalarni bajargan. Temurning harbiy g'alabalarida



bunday jangchilarning hisssasi katta bo'lgan. Bu esa Amir Temurning nafaqat zabardast strateg, balki zamonaviy harbiy mafkuraning tarixiy ildizlariga asos solgan sarkarda ekanini ko'rsatadi.

**Kapitan Behruz ABDURAHIMOV,**  
Mudofaa vazirligi Merganlar  
tayyorlash markazi katta o'qituvchisi

Mudofaa vaziri kubogi

# YANGI CHEMPION ESKILARINI

Saralash bosqichlaridan yuqori natijalarni qayd etib, vazirlik miqyosida qatnashgan ishtirokchilar o'rtasidagi musobaqa keskin va murosasiz kechdi. Bahsli holatlarga hamkor tashkilotlar tomonidan jalb etilgan hakamlar hay'ati a'zolari ishtirokida videotasvirlar orqali aniqlik kiritilib, musobaqaning shaffof o'tishi ta'minlandi.

– Ishtirokchilar 120 dan ortiq bo'lib, 14 jamoaga bo'lingan holda bellashdi. Chempionatni 10 nafardan ortiq hakamlar hay'ati a'zolari boshqarib bordik, – deydi xalqaro toifadagi hakam Bahromjon Abdullayev. – Har bir ishtirokchining chiqishlari maxsus videokamera orqali yozib borildi. Odatda mag'lub tomonidan hakamlarning chiqargan qarorlariga norozilik bildiriladi. Bu musobaqada ham shunday noroziliklar bo'ldi. Barchasiga yozib olingan videotasvirlarni qayta ko'rish orqali xulosamizni berdik. Natijada shubha-gumonga o'rin qolmadi. Biz, hakamlar doimo kuchli sportchining g'alaba qozonishini xohlaymiz.

Chempionat yakuniy natijasiga ko'ra, 1-o'rin Mudofaa vazirligi qo'mondonligi terma jamoasi tomonidan zabt etildi. Ikkinchi o'rinni Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi egalladi. Uchinchi o'rin esa Toshkent harbiy okrugi jamoasiga nasib etdi.

Tasodifni qarangi, o'tgan 2024-yilda birinchi o'rin Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug, ikkinchi o'rin Toshkent harbiy okrugi hamda Sharqiy harbiy okrug



Mushtlar, tepishlar, otishlar va og'riqli ushlab turish kabi texnik harakatlar baholanishi inobatga olinsa, qo'ljangi sport turida jarohat olish ehtimoli juda yuqori. Bunday holatlarning bo'lishini bila turib, tatamiga tushish insondan metin iroda, kuchli qat'iyat, o'ziga bo'lgan ishonch va tavakkalchilik talab etadi.

Jismida bu kabi xislatlarni jamlagan sportchilarda g'alabaga bo'lgan ishtiyoq o'ta yuqori bo'lishi bilan bir qatorda kuchli ruhiy bosimga ham bardosh berish xususiyati mujassam bo'ladi. Mudofaa vazirligiga qarashli aloqachilar harbiy qismi o'quv-moddiy bazasida bo'lib o'tgan qo'ljangi bo'yicha mudofaa vaziri kubogida ham xuddi ana shunday mard va jasur harbiy xizmatchilar o'zaro bellashdi.

Vatanimiz mustaqilligining 34 yilligiga bag'ishlab Mudofaa vazirligi qo'shinlari miqyosida "Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!" shiori ostida o'tkazilgan ushbu chempionatda barcha harbiy okrug, qo'mondonlik va oliy harbiy ta'lim muassasalari vakillari ishtirok etib, g'oliblik uchun kurash olib bordi.

jamoalari, uchinchi o'rin esa Shimoli-g'arbiy harbiy okrug jamoasiga nasib etgan edi. Bu yil Mudofaa vazirligi qo'mondonligi terma jamoasining g'olib bo'lishi eski chempionlarni bir pog'ona pastlashiga majbur qildi.

– Mudofaa vazirligi miqyosida o'tkazilayotgan turli sport musobaqalarida 2014-yildan buyon qatnashib kelaman. Qo'ljangi musobaqasiga o'tgan yili yangilik sifatida +97 kg vazn toifasi qo'shilgan edi. O'sha vaznda tatamiga tushib, faxrli birinchi o'rinni egalladim, – deydi III darajali serjant Sergey Qurbonov. – Bugungi musobaqa o'ta ko'tarinki ruhda o'tdi. Unda Mudofaa vazirligi qo'mondonligi terma jamoasi safida qatnashdim. Shaxsiy natijamdan ko'ra qo'mondonligimizning natijasi meni ko'proq quvontirdi. Shu jamoada ishtirok etib, g'oliblik uchun o'z hissamni qo'shganimdan xursandman. Kelajakda jahon arenalarida yurtimiz bayrog'ini baland ko'tarib, yuqori o'rinlarni zabt etishda bor kuch-g'ayratimni ayamayman.

# BIR POG'ONA PASTLATDI



Muallif suratga olgan

**Yakka tartibdagi natijalar quyidagicha:**

**57 kg vazn toifasida:**

**3-o'rin** kichik serjant Alijon Qosimov (MOKQ);

**2-o'rin** KBHX, oddiy askar Askarxo'ja Mutalibjonov (JOQ);

**1-o'rin** KBHX, oddiy askar Ismoil Alimardonov (JG'MHO).

**62 kg vazn toifasida:**

**3-o'rin** III darajali serjant Akbarxon Husanov (MOKQ);

**2-o'rin** KBHX, oddiy askar Azizbek Yusupov (JG'MHO);

**1-o'rin** KBHX, oddiy askar Elbek Ergashev (JOQ).

**67 kg vazn toifasida:**

**3-o'rin** KBHX, oddiy askar Muhammadali Ismoilov (JG'MHO);

**2-o'rin** III darajali serjant Abdumalik Muhammadiyev (MOKQ);

**1-o'rin** KBHX, oddiy askar Mahmudxo'ja Tursunov (MHO).

**73 kg vazn toifasida:**

**3-o'rin** III darajali serjant Husniddin Mamajonov (MOKQ);

**2-o'rin** leytenant Javohir Qahhorov (ShG'HO);

**1-o'rin** kichik serjant Sardor Samijonov (ShHO).

**80 kg vazn toifasida:**

**3-o'rin** KBHX, oddiy askar Samandar Soliyev (ShHO);

**2-o'rin** III darajali serjant Elyorjon Yo'lchiyev (MOKQ);

**1-o'rin** kichik serjant Bunyod Anvarjonov (ShG'HO).

**88 kg vazn toifasida:**

**3-o'rin** III darajali serjant Faxriddin Mamatxo'jayev (MOKQ);

**2-o'rin** kichik serjant Otaxon Munavvarov (ShG'HO);

**1-o'rin** KBHX, oddiy askar Sarvarbek Hasanov (THO).

**97 kg vazn toifasida:**

**3-o'rin** kichik serjant Javlonbek Abduvaliyev (ChOTQMBY);

**2-o'rin** KBHX, oddiy askar Asrorbek Egamberdiyev (ShHO);

**1-o'rin** III darajali serjant Sherali Mahamadinov (THO).

**+97 kg vazn toifasida:**

**3-o'rin** kichik serjant Lutfullo Omonov (THO);

**2-o'rin** KBHX, oddiy askar Sanjar Bahromov (MHO);

**1-o'rin** III darajali serjant Sergey Qurbonov (MOKQ).

**Umumjamo'a hisobida:**

**3-o'rin** Toshkent harbiy okrugi;

**2-o'rin** Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug;

**1-o'rin** Mudofaa vazirligi qo'mondonligi terma jamoasi.

G'olib va sovrindorlar medal, diplom va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi. G'olib jamoaga esa mudofaa vaziri kubogi tantanali ravishda topshirildi.

**Sherzod SHARIPOV,**  
"Vatanparvar"



Chempionat

# MAQSADI ANIQNING marrasi yuksak bo'ladi



Har bir davlatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashda asosiy poydevor inson omili, uning intellektual salohiyati bilan uzviy bog'liq. Shunday ekan, unib-o'sib kelayotgan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ular ongida ona yurtga muhabbat, kelajakka bo'lgan ishonchini yanada oshirish bugunning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning ko'lami keng. Navqiron avlod vakillari uchun yaratilayotgan sharoitlar ular ko'zlagan marralar sari yetaklamoqda. Xususan, Mudofaa vazirligidagi harbiy qism va muassasalarda faoliyati yo'lga qo'yilgan turli to'garaklar ayniqsa yoshlarning bugun bilan hamnafas bo'lishlarida, qolaversa o'z iste'dod va imkoniyatlarini amalda namoyon etishlarida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yaqinda Birlashgan Arab Amirliklarining Dubay shahrida taekvondo GTF yo'nalishi bo'yicha yoshlar o'rtasidagi jahon chempionati bo'lib o'tdi. Mazkur nufuzli musobaqada mamlakatimiz sha'nini himoya qilgan Mudofaa yoshlari klubi a'zolari raqiblariga nimalarga qodir ekanini amalda namoyon etdi. Aytish kerakki, bu ularning xalqaro sport maydonidagi ilk musobaqalari va erishgan ulkan natijalari hisoblanadi.

O'zbekiston nomidan chempionatda ishtirok etgan Amira Botirova, Temur Bahodirov hamda Akbar Ashirov har biri bittadan oltin va kumush medalga sazovor bo'ldi. Ularning yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarligi hamda texnik mahorati xalqaro hakamlar va mutaxassislar tomonidan yuksak darajada e'tirof etildi.

Shuningdek, Salohiddin Boboxonov, Arslon Jovliyev va Orzumurod Umrzoqov o'z vazn toifasida 2-o'rinni egallab, kumush medallarga ega bo'ldi. Farrux Husanboyev hamda kontrakt bo'yicha harbiy xizmatchi, oddiy askar Azizbek Zokirov esa 3-o'rinni egallab, bronza medalni qo'lga kiritdi. Yakunda delegatsiyamiz a'zolari umumjamoa hisobida faxrli 3-o'rinni egalladi.

Chempionat doirasida yakka jang, jamoaviy jang hamda kompleks "Tul" mashg'ulotlari bo'yicha barcha yo'nalishlarda qatnashgan sportchilar mustahkam irodasi va qat'iyati bilan boshqa ishtirokchilardan ajralib turdi. Ularning

har bir chiqishi terma jamoa umumiy natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ta'kidlash joizki, g'olib va sovrindor sportchilarning aksariyati Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugga qarashli harbiy qismlardan birida faoliyat yuritayotgan sport to'garagi a'zolari hisoblanadi. Ushbu to'garak harbiy xizmatchining tashabbusi bilan tashkil etilgan. Bu yerda nafaqat harbiy xizmatchilarning farzandlari, balki mahallalardagi yoshlar ham qamrab olingan. Ular muntazam ravishda o'z ustida ishlab, shug'ullanib kelmoqda. To'garak faoliyati yo'lga qo'yilganiga hali ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, bugun uning ilk natijalari bo'y ko'rsatmoqda – yosh sportchilar xalqaro miqyosdagi musobaqalarda ishtirok etib, yurtimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tardi.

Vatanimiz sharafini munosib himoya qilgan sportchilar Toshkent xalqaro aeroportida tantanali tarzda kutib olindi.

Bir so'z bilan aytganda, "Mudofaa yoshlari" klubi sportchilarining xalqaro sport maydonidagi muvaffaqiyatlari O'zbekiston yoshlari salohiyatining yaqqol dalilidir. Bu kabi yutuqlar mamlakatimizda sport sohasiga qaratilayotgan doimiy e'tibor va yaratilayotgan shart-sharoitlarning samarasidir.

**Sherzod SHARIPOV,**  
"Vatanparvar"

Askar so'zi



## YIGITLIK IMTIHONI hayot maktabida

"Men, oddiy askar Kamolov Muhammadali Azizbek o'g'li go'zal va qadimiy tarixga ega Andijon viloyatida, mehrlil oilada orzu-umidlar bilan ulg'aydim. 2025-yil boshlarida orzularimdan biri amalga oshdi – Samarqand viloyatidagi harbiy qismga muddatli harbiy xizmatga chaqirildim. Bu men uchun hayotimdagi eng mas'uliyatli va faxrli bosqichlardan biri bo'ldi.

Harbiy xizmat oddiy sinov emas, hayot maktabidir. Dastlabki kunlardan har bir lahzani intizom, tartib, jamoaviylik, do'stlik va eng asosiysi, Vatanga sadoqat bilan yashashni o'rgandim. Bu yerda har bir harakatimiz, har bir mashg'ulotimiz yurt tinchligini asrashga xizmat qiladi. Tonggi saf tortishlardan tortib harbiy tayyorgarlik, o'q otish, harakatdagi nishonga mo'ljallash mashg'ulotlari – bularning barchasi bizni chinakam himoyachiga aylantiradi.

Kuni kecha Markaziy harbiy okrugga qarashli "Sazagan" dala-o'quv maydonida navbatdagi mashg'ulotlarni o'tkazdik. Bu yerda o'q otish qurolidan foydalanish, nishonni aniq mo'ljallash va ekstremal sharoitlarda harakat qilish kabi muhim ko'nikmalarni egalladik. Har bir o'q, har bir mashq, har bir buyruq ortida askarning jasorati, chaqqonligi va hushyorligi mujassam.

Harbiy xizmatda jismoniy mashqlar, jangovar tayyorgarlik va

nazariy bilimlar bilan bir qatorda, eng muhimi – ruhiy barqarorlik, sabr, bardamlik va do'stlik shakllanadi. Turli hududlardan kelgan yigitlar bir oiladay bo'lib, bir safda turib xizmat qilamiz. Qiyinchiliklarda bir-birimizga yelkadosh bo'lamiz, yutuqlarda bir-birimizdan faxrlanamiz. Bu birlik harbiy xizmatning eng go'zal tuyg'usidir.

Bugun faxr bilan ayta olaman: harbiy xizmat menda sabrni, matonatni, iroda kuchini tarbiyaladi. Har tong uyg'onganimga, yelkamdagi mas'uliyatni, Vatanga bo'lgan sadoqatni yanada chuqurroq his qilaman. Har bir mashg'ulotda o'z mahoratim ustida ishlashga intilaman, har kuni yangi saboq olaman. Bu xizmat hayotimga o'zgacha ma'no baxsh etdi.

Bugungi tinchligimiz aynan shunday harbiy tayyorgarlik, hushyorlik, xalqimizga sodiq yigitlarning fidoyiligi evaziga ta'minlanmoqda. Shu bois men o'z tajribam asosida barcha

yoshlar, xususan maktab va kollej bitiruvchilariga murojaat qilmoqchiman: orqangizda turgan oilangiz, yurtimiz, xalqimiz sizdan faqat bir narsani kutadi – mas'uliyat va Vatanga sadoqat. Harbiy xizmat – bu sizni shakllantiradigan maktab. Bu maktabni albatta har bir yigit o'tashi kerak.

Shu o'rinda ota-onalarga ham minnatdorlik bildirmoqchiman. Bizga to'g'ri tarbiya bergan, yurtga, xalqqa sodiq qilib ulg'aytirgan ustozlarimiz, yaqinlarimiz, maktab jamoasiga rahmat. Bugun biz ularning ishonchini oqlash uchun xizmatdoshlarimiz bilan bir safda Vatana qudofaasi yo'lida halol xizmat qilmoqdamiz.

Mening orzum kelajakda kuchli harbiy mutaxassisga aylanish, O'zbekiston Qurolli Kuchlarida xizmatni davom ettirish, yurt tinchligi yo'lida jonimni ayamaydigan ofitser bo'lishdir. Chunki bu yurt – mening Vatanim, bu xalq – mening xalqim, bu bayroq – mening g'ururim! Shu bois bugun men jonajon O'zbekistonimning har bir yigitiga murojaat qilaman: keling, Vatanimizni sevoylik! Harbiy xizmatni sharaf deb bilaylik! Mardlik yo'lini tanlab, ona yurtimizga sadoqat bilan xizmat qilaylik!"

**Oddiy askar  
Muhammadali KAMOLOV  
so'zlarini MHO matbuot xizmati  
bosh mutaxassisi  
Parvina ABDUHAMIDOVA  
yozib oldi.**

Taqqimot

Ogohlik

# XALQ SEVGAN sharafli inson



Insonning ma'naviy kamolotini yuksaltirishda kitobdek kuchli qudratga ega vosita yo'q. Shu bois azal-azaldan ma'rifat peshvolari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o'qishga, undan ilm-u odob sirlarini o'rganishga chorlab kelgan.

Mudofaa vazirligiga qarashli Toshkent shahrida joylashgan qo'mondonlikda falsafa fanlari doktori, professor Jamila Shermuhammedovaning "Xalq sevgan sharafli inson" deb nomlangan kitobi taqqimoti bo'lib o'tdi.

Harbiy xizmatchilarning kitobxonlik madaniyatini yanada oshirish maqsadida o'tkazilgan ushbu tadbirda so'zga chiqqan muallif nashr etilgan kitobining mazmun-mohiyati xususida so'zladi. O'zining hayot yo'lida boshdan kechirgan ibratli voqealarni eslatdi. Shuningdek, u bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan ijodkorlarga qaratilayotgan e'tibor, ular uchun yaratilayotgan

shart-sharoitlar haqida ham to'xtalib, bu imtiyoz va g'amxo'rliklar qalam ahlini yanada faolroq ijod qilishga undayotganini e'tirof etdi.

Tadbir davomida Jamila Shermuhammedova o'z ijod namunalari bilan ham o'qib berdi. Yakunda muallif yangi kitob nusxalarini harbiy qism kutubxonasiga sovg'a qildi.

Shu kuni harbiy xizmatchilar ishtirokida viktorina ham o'tkazildi. Unda ishtirok etgan harbiy xizmatchilar kitobxonlik borasidagi o'z bilim va ko'nikmalarini sinovdan o'tkazdi.

TOQQQ matbuot xizmati



## YONG'IN XAVFSIZLIGIGA E'TIBOR

Yurtimizda anomal issiq ob-havo davom etmoqda. Bunday ob-havo sharoitida xonalarni sovitish uchun elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoj ancha ortadi.

Shunday ekan, hurmatli harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilari, elektr energiyasidan foydalanishda quyidagi yong'in xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qiling:

– elektr tarmog'iga ulangan elektr qurilma va jihozlarini qarovsiz qoldirmang;

– nosozligi bo'lgan elektr jihozlaridan foydalanmang;

– himoya qobig'i shikastlangan yoki himoyalash xususiyatini yo'qotgan elektr kabel va simlaridan foydalanmang;

– elektr tarmog'ining yuklamasini ruxsat etilgan me'yoridan oshirmang;

– shikastlangan (nosoz) elektr rozetkalari, rubilniklar, himoya vositalari, elektr simlari qutilaridan foydalanmang.

Ushbu qoidalarga rioya qilsangiz, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar va yong'inlarning oldini olgan bo'lasiz.

Podpolkovnik O'. XAITOV,  
TOQQQ BA Yong'in xavfsizligi  
xizmati boshlig'i

Jarayon

## Dolzarb mavzularda

Toshkent harbiy prokuraturasi tomonidan Favqulodda vaziyatlar vazirligi maxsus muhandislik-qurilish boshqarmasi shaxsiy tarkibi ishtirokida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha profilaktik tadbir o'tkazildi.

Unda yangi qonun hujjatlari mazmun-mohiyati yetkazilib, jinoyat tushunchasi, tasnifi, shu jumladan korrupsiya illati, uning ayanhli oqibatlar va oldini olish masalalarida tushuntirishlar berildi.

Shu bilan birga, Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismlarning birida shaxsiy tarkib ishtirokida "Yo'l-transport hodisalari va uning muhim oqibatlar" mavzusida ochiq muloqot o'tkazildi. Muloqotda yo'l-transport hodisalarining ayanhli oqibatlarini, yo'l harakati qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik asoslari haqida tushuntirishlar berildi.

Bundan tashqari, Toshkent harbiy sudi bilan hamkorlikda Milliy gvardiyaga qarashli harbiy qismlarning birida ommaviy sayyor qabul o'tkazildi.

Jarayonda tegishli soha mutaxassislari ishtirokida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari tinglanib, murojaatlarni belgilangan tartibda hal etish choralarini ko'rdi.

Adliya mayori Oybek ARIPBAYEV,  
Toshkent harbiy prokuraturasi yordamchisi

Uchrashuv

Samarqand harbiy prokuraturasi va Milliy gvardiyaning viloyat boshqarmasi hamkorligida tizimda xizmat qilayotgan yosh harbiylar va ularning oila a'zolari ishtirokida uchrashuv tashkil etildi.

## Ochiq muloqot

Unda xizmat vazifasini sidqidildan bajarayotgan harbiylarning ota-onalariga tantanali ravishda tashakkurnomalar topshirildi.

Shuningdek, ishtirokchilar harbiy xizmatchilar uchun yaratilgan sharoitlar, zamonaviy qurol-aslaha va texnikalar bilan yaqindan tanishdi. Tadbir doirasida ko'rgazmali chiqishlar namoyish etildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar tayyorlash markazida korrupsiya va kiberjinoyatlarga qarshi huquqiy targ'ibot-profilaktika tadbiri tashkil etildi.

Adliya kapitani  
San'at SHODMONOV,  
Samarqand harbiy  
prokuraturasi tergovchisi

Sayyor qabul

## Inson qadri uchun

Termiz harbiy prokuraturasi tomonidan kuch tuzilmalari va boshqa mutasaddi tashkilotlar hamkorligida harbiy qismlarning birida ommaviy sayyor qabul o'tkazildi.

Unda harbiy xizmatchilar, xodimlar va ularning oila a'zolari hamda yoshlar tinglandi.

Jami 20 ta murojaatdan 3 tasi joyida ijobiy hal etildi, 10 tasi yuzasidan huquqiy tushuntirish berildi, yechimi vaqt talab qiladigan 7 ta murojaat nazoratga olindi.

Jarayonda tashkil etilgan mehnat yarmarkasida esa harbiy xizmatchilarning oila a'zolari va yoshlarga bo'sh ish o'rinlari taklif etilib, ularni ish bilan ta'minlash choralarini ko'rdi.

Qabuldan so'ng harbiy qism hududida olib borilayotgan qurilish-ta'mirlash ishlari aholi o'rganilib, yakunda mas'ullarga tegishli ko'rsatma va tavsiyalar berildi.

Adliya katta leytenanti  
Daler RAHMATILLAYEV,  
Termiz harbiy prokuraturasi  
katta yordamchisi

Profilaktika

Urganch harbiy prokuraturasi tomonidan nazorat hududidagi tuzilmalarda mavjud sharoitlar va xizmat o'tash ahvoli yuzasidan o'rganishlar olib borildi.

## O'rganishlar

Ularda mavjud sharoitlar, hududda amalga oshirilayotgan qurilish-ta'mirlash ishlari hamda energiya samaradorligi va energotejamkor uskunalardan foydalanish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratildi.

O'rganilgan masalalar yuzasidan mas'ullarga tegishli ko'rsatmalar berib o'tildi.

Shuningdek, qator harbiy qism va muassasalarda huquqiy targ'ibot-profilaktika tadbirlari tashkil etildi. Jumladan, Xorazm viloyati mudofaa ishlari va Milliy gvardiya boshqarmalarida hamda Urganch shahri favqulodda vaziyatlar bo'limida shaxsiy tarkib ishtirokida "Korrupsiya – taraqqiyot kushandasi" mavzusida ochiq muloqotlar o'tkazildi.

Adliya podpolkovnigi  
Umid NIZAMOV,  
Urganch harbiy prokuraturasi

Esse

# AYIQNI YIQITGAN POLVON

Ko'pni ko'rgan keksalar hamon gap-gashtalarda, gurunglarda kurash haqida gap ketgudek bo'lsa, asli Chiroqchining Qipchoqsaroy qishlog'idan bo'lgan To'laboy polvon (*el-ulus To'la polvon degan*) haqida maroq bilan so'zlaydi.

Tabiatan kuchli va epchil bo'lgan To'laning bolalik va yoshlik davri mashaqqatda o'tdi. Otasi vafot etgach, qishloqning podasini boqib tirikchiligini o'tkazar, ba'zan zerikmaslik uchun dalada har kuni buzoq, keyin ho'kizlarni ko'tarib mashq qilar, quduqning qovg'asi (*teridan tikilgan katta chelak*)ni bir o'zi tortib, yuzga yaqin qoramolni sug'orardi. Aslida zildek og'ir qovg'ani quduqdan podachi va cho'ponlar tuya yoki ot bilan tortishgan. Bir kuni uch kishi bir qanor bug'doyni otga orta olmay turganda, To'la polvon kelib qolgan va o'zi qanorni dast ko'tarib otga ortib bergan ekan.

Hamqishlog'im rahmatli Baxtiyor bobo alomat yodkash odam edi. Bobo kunlarning birida To'la polvon bilan bog'liq voqealarni so'zlab berdi.

O'ttizinchi yillarning o'rtalarida o'spirin bola edim, tog'am mulla Ibrohim tuman moliya idorasining boshlig'i bo'lib ishlardi. Tog'am bir kuni uyiga notanish yigitni otiga mingashtirib keldi va oila a'zolariga To'la polvon deb tanishtirdi.

To'la polvon o'rta bo'yli, keng yelkali, qo'l-oyoqlari baquvvat, xushsurat yigit ekan.

Polvon tog'amning bog'ida ishlab, mol-holiga qarab yurdi. Ba'zan tengdosh jo'ralarim bilan uning yoniga borib, polvonlik, chavandozlik haqidagi suhbatlarini miriqib tinglardik. Ana shunday damlarda uning ko'zlari chaqna ketar, bizlarni kurash tushishga undar, turli usullarni erinmasdan o'rgatar edi.

Bir yili qish qattiq kelib, qalin qor yog'di. Kunlarning birida qorning og'irligini ko'tara olmay, qo'raning yo'g'on ustuni bexosdan sinib ketdi va qo'ylar bostirma tagida qoldi. Qarsillagan tovushni eshitgan To'la polvon yugurib kelib tog'amni chaqirdi. So'ngra zildek yog'ochni yelkasiga olib, tog'am qo'ylarni haydab chiqquncha bostirmanini ko'tarib turdi. Shu voqeadan keyin tog'amning polvonga mehri yanada ortdi.

\*\*\*

To'la polvon 19-20 yoshlarida atoqli polvon sifatida el nazariga tushdi. To'y va sayillarda birinchi tovoqni olib, davralarni to'xtatib qo'yadigan bo'ldi.

Samarqandda yashaydigan Prisyann polvon (*asli kavkazlik*) To'la polvonning



Surat sun'iy intellekt yordamida tayyorlandi.

dovrug'ini eshitib, u bilan kurashish maqsadida Chiyali qishlog'idagi katta to'yga keldi. Birinchi tovoqni To'la polvon olgach, talab qilib maydonga chiqdi.

Xuddi afsonalarda tasvirlangan devdek barzangi Prisyann polvonning qarshisida To'la polvon ko'zimga yosh boladek ko'rindi. Kuchiga ishongan armani polvon hatto raqibiga nazar solishni ham o'ziga ep ko'rmadi. To'la polvon esa xotirjam davra aylandi. So'ngra kurash boshlandi. Birinchi qafasda polvonlar bir-birini sinab ko'rgach, ikkinchi qo'lda To'la polvonning "Yo, pirim!" degan tovushi eshitildi-yu, mashhur armani polvoniga To'la polvon qo'shpoycha soldi. Raqib butun gavadasi bilan gursullab maydon o'rtasiga yiqildi. El "Halol!" deb hayqirdi. Mag'lub polvon uyalganidan yig'lab davradan chiqib ketdi. Zotga berilgan toyni qishloqqa minib qaytarkanman, negadir qo'shiq aytgim keldi, g'olib To'la polvon emas, go'yo o'zim edim...

Ertasiga tog'am To'la polvonning sharafiga elga osh berdi.

\*\*\*

Bir yili Chiroqchida o'tadigan Ramazon hayiti sayliga tog'dan ayiq polvon kelarmish, zotiga tuya qo'yilar emish, degan shov-shuv tarqaldi. To'la polvon bu xabarni eshitib, sayilga bordi. Darhaqiqat, ayiq polvon kelgan ekan.

Katta kurash boshlandi. Avval yosh polvonlar, so'ngra atoqli polvonlar kuch sinashdilar. Kurash oxirida bakovul davrani tartibga chaqirib, baland ovozda e'lon qildi:

– Tog'dan ayiq polvon kelgan. Kimki unga chiqsa, zotiga nor tuya qo'yiladi. Talabgoring o'rtaga chiq!

Shu payt deng, bir odam bahaybat kulrang ayiqni ergashtirib davraga chiqdi. Qurg'ur "Ayiqpolvon" beliga belbog' bog'lagan, xuddi alplardek ikki oyoqda davra aylandi. Uning haybati-yu shashtini ko'rgan zo'rlar jim bo'lib, pisib qoldi.

Bakovul yana tovush berdi:

– Eldoshlar, ko'ngillaring o'zlaringdan qolsin, yana bir chaqiraman, agar talabgor bo'lmasa, tuya ayiq polvonga ketadi.

Davraning adog'ida o'tirgan To'la polvon chiday olmadi, davraga otilib chiqdi. Tog'am uni qaytarmoqchi bo'ldi, ammo xaloyiq: "Olish", "Qaytma!" deb unga dalda berdi. U avval keksalardan duo oldi. "Ilohim, yigit piri qo'llasin, To'laboy! Lekin ayiqning quchoq'iga borma", dedi ular. Ayiq polvon raqibini ko'rib, g'alati bo'kirdi. Bu uning To'la polvonga: "Menga bekor chiqding, juvonnarg ketasan", deganimidi?! Yo bo'lmasa...

To'la polvon sherdek ohista davra aylanib, qulay fursatni kuta boshladi. Ayiqqa qaysi usulini qo'llasa bo'ladi? Uni quchoqlab, qo'shpoychaga olib bo'lmaydi. Quchoqlasa, ayiq beliga shikast yetkazishi mumkin. Yaxshisi, uni yelkadan oshirib tashlash kerak.

To'la polvon ayiqqa tik borib, chap qo'li bilan ayiqning ko'zini shamg'alat qilib, bosqondek o'ng qo'li bilan ayiqning chap bilagiga urib, biroz jonsizlantirdi. So'ngra jonivorning o'ng qo'lidan ushlab, davrani ikki marta

aylantirib, boshidan oshirib tashladi. Ayiq uning yelkasidan xuddi somon to'ldirilgan qanordek oshib ketdi. Davradagilar qiyqirib yubordi. To'la polvon zudlik bilan davrani tark etdi. G'azablangan ayiq bo'kirganча raqibini izlab qoldi. Chiroqchi tumani militsiyasi boshlig'i Ahmad Rustamov To'la polvonning yelkasiga o'zining choponini yopdi.

Biz tuyani yetaklab qishloqqa qaytdik. Ertasiga To'la polvon bizlarga o'ng yelkasi achishayotganini aytdi. Qarasak, ayiq panjasining izi ekan.

Oradan yillar o'tdi. Tog'am To'la polvonni uyantirib, xizmatiga rozi bo'lib, yurtiga kuzatib qo'ydi.

\*\*\*

Chiroqchilik atoqli polvon Abdurashid Mirzayev qalamiga mansub "Kurashning qayta tug'ilishi" kitobidagi quyidagi satrlar e'tiborimni tortdi:

"Zo'rlar olishganda maydon larzaga keladi. Ikki alp uzoq kurash tushdi. Kuchlar teng keldi. Davrani boshqarayotgan Norqora bobo muxlislariga ikki mashhur polvonning kuchlari teng keldi, endi ularni ajratib qo'yaylik, deb ruxsat so'raydi. Xaloyiq baralla: "Mayli, shunday bo'lsin, Mavlon – Mavlon-da, To'la – To'la-da, qolsin", deb hayqirib rozilik berdi".

Muallif yana bir qiziq voqeani qalamga olgan:

"Bir ma'rakadan qaytayotgan ikki chol eshaklari ustida o'tirganча tortishib borayotir. Chunki ularning ikkovi ikki urug'dan, biri Mavlon zo'r, desa, ikkinchisi, yo'q, To'la polvon zo'r, deydi. Oxiri xila (eshakni niqtaydigan cho'p) lar yangi boshlandi. Odamlarning "E, bu chollarga nima bo'lgan o'zi?" degan qarashlari ular uchun hozir yot edi.

Oxiri raqiblardan biri o'ziga kelib, xezlanayotgan sherigiga: "Ko'zingga qon tiqilganmi? Jigaring toshib quturgandek bo'psan", deganidan keyin o'ziga kelgan Yo'ldosh bobo: "Eh, Mavloniyam, To'la polvoniyam qursin! Bu omon bo'lgurlar xo'p ish qildi-yov, Abdusamatboy, bugun biz ulardan ham ko'proq ish qildik. Janjallashib, uyimizdan ikki chaqirim nariga o'tib ketibmiz..."

Darhaqiqat, To'la polvon elning or-nomusi deb maydonga tushib, biror marta mag'lub bo'lmagan. Shu bois uning nomi yillar osha elning xotirasida yashab kelyapti. To'la polvondan Mengir ismli o'g'il va bir qiz qolgan. O'g'li dehqonchilik bilan shug'ullangan va uylanib, ikki o'g'il va to'qqiz qizli bo'ldi. Xalqimizning "Oqqan daryo yana oqadi", degan gap bor. Kuni kelib polvon bobomizning avlodlaridan yana xuddi bobosidek yengilmas kurashchilar yetishib chiqsa, ajabmas...

**O'rolboy QOBIL,**  
**O'zbekiston Yozuvchilar**  
**uyushmasi a'zosi**



Qahramonlar nomi barhayot

# LEYTENANT

## G'aniyev MONOLOGI



Kapitan Bobur ELMURODOV, "Vatanparvar"  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

2000-yil. Sariosiyo tumanidagi Kishtut darasi.  
Tun qorong'isida hududni ko'zdan kechirayotgan leytenant  
Bobur G'aniyev boshchiligidagi 7 nafar posbon  
jangarilar pistirmasiga uchradi. Dushman snayperlari  
leytenant Bobur G'aniyev va katta serjant  
Ma'ruf Rajabovni og'ir yaraladi. Shunda vzvod komandiri  
ratsiya orqali chekinishga buyruq berdi. Ammo leytenant G'aniyev...



\*\*\*

– Oldinga, leytenant G'aniyev!  
Orqaga yurishga haqqing yo'q!  
Oldinga, leytenant G'aniyev!  
Oldinda yog'ilib turar o'q...

– Oldinga, leytenant G'aniyev!  
Oldinga, quoldosh jo'ralar!  
Biz oshkor chiqamiz maydonga,  
Dushmanlar panadan mo'ralar...

Sudrayman o'q yegan oyog'im,  
– Qani chiq, gazanda, bekinma!  
– Tilga kir, vafodor qurolim,  
– Jangga kir, yuragim, chekinma!

Jangga kir, qarshingda jangari  
Dushmanni tilkala birma-bir!  
Jangga kir, ajdodlar singari,  
Jangga kir, jangga kir, jangga kir!!!

Ortimda xalqim bor – umidvor,  
Qon bo'lgan libosim – kafanim!  
Ortimda Munavvar onam bor!  
Ortimda – munavvar Vatanim!

Orqaga qaytmaymiz, Ma'rufjon!  
Orqaga yo'l yo'qdir qaytgulik.  
Tur, olg'a boramiz, Qahramon!  
Oldinda hayot bor mangulik.

Hech qachon unutmam, do'stlarim,  
Kishtutning bu g'amgin tunini.  
Oldingga boraman – olgani  
Qahramon do'stlarim xunini.

– Oldinga, leytenant G'aniyev!  
Bir boshga bir o'lim, jo'ralar...  
Biz oshkor chiqamiz maydonga,  
Dushmanlar panadan mo'ralar...

## VATANPARVAR



MUASSIS  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MUDOFAA  
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

**Tahririyat kengashi:**  
general-mayor Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otabek Yuldashev  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz  
qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.  
Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan  
farqlanishi mumkin.  
Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
departamenti – "Vatanparvar" birlashgan  
tahririyatining kompyuter markazida  
sahifalandi.

**Bosh muharrir:**  
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot  
va axborot agentligida 2008-yil  
6-iyunda 0535 raqami bilan  
ro'yxatga olingan.

**Telefonlar:**  
kotibiyat: 55 511-25-90  
buxgalteriya: 55 511-25-76  
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

**Navbatchi:** katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov  
**Sahifalovchi:** Dilnoza Meliqo'ziyeva  
**Musahhih:** Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-5999  
Hajmi: 6 bosma taboq  
Bichimi: A3  
Adadi: 32 318 nusxa  
Bosishga topshirish vaqti: 14:00  
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani  
rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop  
etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.  
Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq  
boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.  
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyat-matbaa ijodiy uyi  
bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri,  
Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri,  
Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy.